

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI  
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

UDK 811.512

Qo'lyozma huquqida

MAGISTRATURA BO'LIMI  
O'ZBEK TILI KAFEDRASI  
**YULDASHOVA NAZOKAT SHUKURLAYEVNA**

**"O'ZBEK TILIDA INTERAKTIV DIKTANT YARATISH  
TEXNOLOGIYALARI"**

Mutaxassislik: 5A111201 - o'zbek tili va adabiyoti

Magistr  
akademik darajasini olish uchun yozilgan

**D I S S E R T A T S I Y A**

Davlat attestatsiya komissiyasida  
himoya qilishga ruxsat berildi.

Magistratura bo'limi boshlig'i: dots. M.Allambergenova  
Kafedra mudiri: dots. Sh.Yuldasheva  
Ilmiy rahbar: dots. Sh.Bo'ronova

**NUKUS – 2019**

## MUNDARIJA

Kirish . . . . .	3 – 11
Birinchi bob. o‘quvchilar savodxonligini oshirish pedagogik muammo sifatida: diktantlar va innovatsion texnologiyalar. . . . .	12 – 29
1.1. Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda o‘quvchilar savodxonligini oshirish pedagogik muammo sifatida . . . . .	12 – 16
1.2. Diktant metodikasida innovatsiyalar va baholashning elektron tizimi. . . . .	16 – 29
Ikkinchi bob. Interaktiv diktant – savodxonlikni baholashning elektron tizimi . . . . .	30 – 48
2.1. An’anaviy va interaktiv diktant xususiyatlari. . . . .	30 – 35
2.2. Savod.uz sayti va “Interaktiv diktant dasturi” loyihasi. . . . .	36 – 48
Uchinchi bob. “Interaktiv diktant” dasturidan foydalanish masofali ta’lim sari qadam sifatida. . . . .	49 – 62
3.1. Masofali va aralash ta’limni tashkil qilish interaktiv diktantlar imkoniyatlari. . . . .	49 – 57
3.2. “Interaktiv diktant” dasturidan foyalanish: muhokama va tavsiyalar. . . . .	57 – 62
Xulosa . . . . .	63 – 64
Foydalanilgan adabiyotlar . . . . .	65 – 70

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbliji.** Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “bolalar va yoshlarga maxsus fanlar, mamlakatimiz va jahon sivilizatsiyasi tarixini, xorijiy tillarni va zamonaviy kompyuter dasturlarini chuqur o‘rgatish vazifalari hali sifatli va to‘liq holda yechilgani yo‘q”<sup>1</sup>. Ayniqsa, xorijiy tillarni o‘rgatish tizimining takomillshtirilishi<sup>2</sup>, zamonaviy ta’lim vositalari yordamida sun’iy muhitda xorijiy tillarni zo‘r ishtiyoy bilan o‘rganayotgan, burro-burro gapiroayotgan o‘quvchilarning ona tili ta’limida ham yangi texnologiyalar, innovatsiyalar qo‘llanishini talab qilishi tabiiy hol.

Ta’lim sohasi bo‘yicha Internet saytlari ularni o‘quv jarayonida ishlatish uchun ko‘plab zamonaviy vositalarni taklif etadi. Xorij tajribasini o‘rganish shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi informatsion texnologiyalar asrida kompyuter dasturlari muayyan darajada o‘qituvchi mehnatini yengillashtirishga xizmat qila oladi.

Jumladan, Play Google.com saytida ko‘ngilochar mobil ilovalar qatorida til darsining har bir bosqichi uchun taqozo qilinadigan, shuningdek o‘quvchi mustaqil ta’lim olishi uchun qulay ilovalar taklif qilingan: “Репетитор по русскому языку”, “Диктанты. Русский язык”, “Ударение”, “Части речи”, “Аудиокурс. Русский язык”, “Правила по русскому языку”, “Пунктуация”, “Русский язык”, “Сочинение”, “Умный словарь”, “Как писать”, “Грамматика. курс”, “Орфография”, “Языковед”, “Орфография. Диктант”, “Словарные слова, Учим русский”, “Орфография и пунктуация”, “Склонение”, “Спряжение”, “Фразеологический словарь”, “Словарь. Синоним”kabi ilovalarni ko‘rib havasangiz keladi. Gramota.ru ma’lumot-axborot internet portalining “Klass” bo‘limida maktab o‘quvchilari va katta yoshdagilarga rus tili qoidalarini o‘rganishga yordam beruvchi: «Репетитор онлайн», «Учебники»,

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – хар бир раҳбар фаолиятининг кундалик коидаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 47 б.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

«Олимпиады», «Запоминалки» каби bo‘limchalar o‘rin olgan. Bu ilovalarning aksariyatida o‘qituvchining vaqtini, kuch-quvvatini sug‘urib oladigan yozma ish o‘tkazish va uni tekshirib baholash jarayoni muayyan vaqtda tez va oson bajariladi. Uning aksariyati tilning grammatikasini o‘rgatishga, o‘quvchi lug‘at boyligini oshirishga, til talaffuzini o‘zlashtirishga mo‘ljallangan. Gramota.ru o‘quv resursining interfaol diktantlari alohida e’tiborga loyiqidir. U rus tilidan savodxonlikni onlayn sinovdan o‘tkazish uchun mo‘ljallangan. Bu sinovdan har qanday foydalanuvchi o‘ta olishi va shu lahzada o‘z natijalarini ko‘ra olishi mumkin. Biroq bu natijalar saqlanib qolmaydi va taklif qilinadigan matnlar soni juda cheklangan bo‘lib, bu o‘quv jarayonida interfaol diktantni muntazam va maqsadli ravishda foydalanish imkoniyatini bermaydi.

Play Google.com saytidan o‘zbekcha ilovalarni izlaymiz: “Donolar so‘zlaydi”, “Sirli sandiq”, “Тил ўрганиш сирлари”, “Рус тилини ўрганамиз”, “Корейс тили”, “Таржимон”, “Билимдон”, “Турк тилини ўрганамиз”, “Инглиз тилини ўрганамиз”, “Ха ёки йўқ”, “Ислар китоби”, “Ислар маъноси”, “Имло дастури”, “Топишмоқлар”, “Ўзбек халқ эртаклари”, “Алифбо -1”, “Инглиз ўзбек сўзлашгичи”, “Хотира машқлари”, “Ҳикматлар”, “Abt.uz – Абитуриент”, “Zukko – so‘z o‘yini” kabi ilovalarni ko‘rib yengil tortasiz. Ularning aksariyati xorijiy tillarni o‘rgatishga mo‘ljallangan. Ayniqsa, “Imlo dasturi”ning imkoniyatlarini ko‘rib, uning muallifidan qayta-qayta minnatdor bo‘lasiz. Biroq bu ilovalar yuqorida sanalgan rus tilidagi ilovalarga qiyoslaganda yetarli emasligi, tilga oid mashq va topshiriqlarni qamrab olish bo‘yicha ilovalarning deyarli mavjud emasligi sizni hushyor torttiradi. Demak, o‘zbek tili grammatikasini o‘rgatishga, o‘quvchi lug‘at boyligini oshirishga, til talaffuzini o‘zlashtirishga mo‘ljallangan ilovalarni o‘zbek tilida ham yaratish zarur. Ayniqsa so‘nggi yillarda ichki ishlar vazirligi bo‘limlariga xodimlar tanlashda, harbiy ta’lim muassasalariga kiruvchilar uchun diktant o‘tkazish an’anaga aylangani bunday dasturlarni yaratish ishini jadallashtirishni taqozo etmoqda. O‘rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturlarning kompyuter va mobil versiyalarini yaratish va ommalashtirishda kompyuter dasturchilari hamda ona tili va adabiyot fani

o‘qituvchilarining hamkorlikdagi faoliyatini tashkil qilish alohida ahamiyatga ega. Demak, xorijiy tajribalardan o‘rganish va yozma ishlarni tekshirish va baholashdagi an’anaviy usullar bilan birga innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq qilish fursatini boy bermaslik va interaktiv diktantlarni yaratish hamda joriy etish zaruriyatga aylanmoqda. Ma’lumki, o‘quv yili davomida ta’lim muassasalarida ona tili va o‘zbek tili(davlat tili)dan o‘quvchilar va talabalar yozma ishlari – diktantlar yozadilar. Ayniqsa ichki ishlari xodimlarini ishga tanlashda ham diktantlar o‘tkazilayotganligini va o‘qituvchilardan bu kabi ishlarni tekshirish qancha vaqt, kuch talab qilishini hisoblab o‘tirishning hojati yo‘q. Demak, ana shu jarayonni avtomatlashtirish Gramota.ru manbasi tomonidan berilgan g‘oya tufayli amalga oshishi mumkin. Bu ta’lim sohasida yangi texnologiya sifatida amaliyatga joriy qilinsa, ona tili o‘qitishda innovatsiya sifatida kam kuch va vaqt sarflab ko‘p natijaga erishish inkoniyatini bergen bo‘lar edi. Ana shuni nazarda turgan holda tadqiqotimiz mavzusini “**O‘zbek tilidan interaktiv diktant yaratish texnologiyalari**” deb nomladik. Bizning innovatsion loyihamiz o‘qitish jarayonini axborotlashtirish, raqamlı texnologiyalarni tatbiq qilishga oid islohotlar amalga oshirilayotgan davrda dolzarblik kasb qiladi.

**Tadqiqotimiz obyekti** elektron ta’lim tizimi va o‘quvchilarning bilim, malaka, ko‘nikmalarini nazorat qilish hamda baholash jarayoni hisoblanadi.

**Tadqiqot predmeti** “Interaktiv diktant” dasturiy ilovasini yaratish texnologiyalari sanaladi.

**Tadqiqot maqsadi** ta’lim muassasalari uchun ona tili ta’limi uchun elektron resurslar yaratish jarayonini jadallashtirish, “Interaktiv diktant” dasturiy ilovasini yaratish, elektron adabiyotlardan foydalanish bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalar yaratishdan iborat.

Quyidagi **vazifalar** bajarilishi taqozo qilinadi:

- barkamol avlodning shakllanishida ona tilini o‘qitishning hal qiluvchi ahamiyatini ko‘rsatish;
- til ta’limini raqamlashtirish amaliyoti, ona tili ta’limi uchun bosma va elektron resurslar tayyorlash tajribalari bo‘yicha xorijiy tadqiqotlar bilan tanishish;

- ona tilini an'anaviy o'qitish jarayonini yangi interaktiv o'quv muhitiga aylantirishning eng istiqbolli usullarini ko'rib chiqish;
- o'quvchilarga zamonaviy axborot texnologiyalari, gadgetlar yordamida har qanday qulay joyda va qulay vaqtida ta'lim olish imkonini beradigan elektron ta'lim vositalarini yaratish;
- foydalaniladigan diktant matnlari, til o'qitish texnologiyalari va dasturiy muhit tanlash;
- zamonaviy dasturlash texnologiyasidan foydalangan holda interfaol diktantni yaratish algoritmlari va dasturlarini ishlab chiqish;
- ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot uchun texnik hujjatlar tarkibini, mazmunini va shaklini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan tizimning funksionalligi va saqlanishini tavsiflash uchun tushuntirish xati yaratish.

**Ishning ilmiy-tadqiqot ishlari rejali bilan bog'liqligi.** Tadqiqot O'zbek tili kafedrasining “O'zbek tilshunosligi va o'zbek tilini o'qitishning dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi hamda kafedra qoshida tashkil qilingan ilmiy-innovatsion guruhning “Ona tili” fanidan elektron o'quv-metodik majmualar yaratish va undan foydalanish texnologiyalari” va “**til o'qitish nazariyasi va metodikasining axborot texnologiyalari bilan uyg'unlashuvi**” loyihalari doirasida bajarilmoqda.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:** tadqiqotdaona tilini an'anaviy o'qitish jarayonini yangi interaktiv o'quv muhitiga aylantirishning eng istiqbolli usullari ko'rib chiqildi, o'quvchilarga zamonaviy axborot texnologiyalari, gadgetlar yordamida har qanday qulay joyda va qulay vaqtida ta'lim olish imkonini beradigan elektron ta'lim vositasi – interaktiv diktant dasturiy ilovasi yaratildi, ulardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar tayyorlandi. Onlayn tizimda diktantlar o'tkazish va avtomatik baholash, imloni o'rgatishga qaratilgan interaktiv diktantlar ona tili ta'limi uchun yangilik hisoblanadi.

**Mavzu bo'yicha adabiyotlar sharhi:** Kompyuter yordamida o'qitish muammolarini tadqiq qilish zamonaviy jamiyatni axborotlashtirishning umumiyl vazifalari bilan bog'liqdir. O'quvchilarni axborotni izlash, foydalanish va uni qayta

ishlashga o‘rgatish zamonaviy mehnat bozori sharoitida raqobatdosh kadrlar tayyorlash borasida zaruriyatga aylanmoqda. Axborot texnologiyalari o‘quvchilar uchun noan’anaviy axborot manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini ochib beradi, ta’lim sifatini oshirishga yordam beradigan hodisalar va jarayonlarni konseptual-matematik modellashtirishni qo‘llash orqali ta’limning yangi shakllari va usullarini amalga oshirishga imkon beradi. Elektron ta’lim tizimidan foydalanish ta’limni zamonaviylashtirishning umumiyl vazifalari bilan bog‘liq bo‘lib, o‘qituvchi va o‘quvchilarning kognitiv potentsialini maksimal darajada amalga oshirishni ta’minlaydi, tobora ortib borayotgan ta’lim ehtiyojlari kompyuter texnologiyalari asosida hal qilinadi. Ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha o‘tkazilgan xorijiy tadqiqotlar AKTdan nutq o‘sirish, o‘quvchining intellektini rivojlantirish, shaxs sifatida kamol toptirishda foydalanish imkoniyati beqiyos ekanligini isbotlaydi (I.G Zaxarova, V.G Bespalko, S. Pepert, G.K.Selevko va boshqalar), shuningdek, o‘quv jarayonida kompyuterdan foydalanishning psixologik aspektlarini hisobga olish (E.I Vishtynetskiy, A.Krivosheev, E.S Polat va boshqalar); gumanitar ta’lim tizimida AKTning o‘rni va ahamiyati (B.S Gershunsky, I.G Zaxarova va boshqalar) ko‘pgina tadqiqotlar obyekti bo‘lgan. XX asr oxirida boshlangan va yangi asrda davom etayotgan elektron ta’lim tizimini yaratish jarayonida ona tilini o‘qitish masalalarini shu nuqtayi nazardan tadqiq qilish va elektron resurslar yaratish borasida muayyan yutuqlarga erishildi. Til ta’limida rus, ingliz tillarini o‘rgatishda kompyuterdan foydalanish, uning afzalliklari, shu bilan birga salbiy jihatlari haqida bir qancha olimlar ilmiy mulohazalarini bayon qilganlar<sup>3</sup>. Bu

---

<sup>3</sup> Марчук Ю.Н.Применение ЭВМ в учебной лексикографии // Проблемы учебной лексикографии и обучения лексики. – М., 1978.- 161-168 с.; Стародубцева Е.А.Использование Интернет-ресурсов в обучении иностранному языку (на материале английского языка) // Труды МЭЛИ: электронный журнал. —2009 –№ 9 [Электронный ресурс] — доступ: <http://www.e-magazine.meli.ru/vipusk9.htm>; Гребнева Е.В. Использование современных информационных технологий для реализации требований ФГОС НОО на современном уроке и во внеурочной деятельности.; Трошина А.В. Учебное пособие по дисциплине "Информационные технологии в лингвистике". – СПб.: Изд-во СПбГЭУ, 2013.– 103 с. доступ: <http://www.allbest.ru/>; Разработка электронных учебных курсов в PowerPoint с помощью iSpringSuite. <http://www.iSpring.ru/>; Особенности внедрения мультимедийных технологий в образовательный процесс Цхинвальского многопрофильного колледжа Козаева Гульнара Ролландовна, аспирант Северо-Осетинский государственный университет имени К. Л. Хетагурова (г. Владикавказ) Парастаева Дзерасса Графовна, методист Цхинвальский многопрофильный колледж (Республика Южная Осетия)//Молодой учёный. № 6 (86). Март, 2015 г. (625)

sohada O‘zbekiston olimlari ham maxsus tadqiqotlar olib bordilar<sup>4</sup>. Sh.J.Yusupovaning nomzodlik ishi o‘rta umumta’lim maktablarining ona tili darslarida noan’anaviy usullar, shu jumladan kompyuter texnologiyalaridan foydalanish usullarini yoritib berishga bag‘ishlangan bo‘lsa, S.Adilovaning nomzodlik ishida oliv ta’lim muassasalarining rus guruhlarida o‘zbek tilini o‘qitish jarayonida taqdimot texnologiyasidan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari, samarali dars usullari ilmiy tadqiq etilgan. Sh.J.Yusupova doktorlik dissertatsiyasida akademik litsey o‘quvchilarining “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fani bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarini o‘stirishda kompyuter texnologiyalarining ahamiyati, DELFI dasturidan foydalanish bo‘yicha tavsiyalari o‘rin olgan. N.Umarova texnika universiteti talabalarining yozma nutqini o‘stirishda elektron o‘quv qo‘llanmalarini yaratishga qo‘yiladigan talablar, elektron pochta xizmatidan foydalanishning afzalliklari haqida so‘z yuritadi.

**Tadqiqotda qo‘llangan uslublarning qisqacha tavsifi:** Respublika Prezidentining til, tarix, milliy mafkura va milliy g‘oya, ma’naviyat, ma’rifat, xorijiy tajribalar haqidagi ilg‘or g‘oyalari asosiy metodologik tayanch vazifasini o‘tadi. 2019- yil 17- yanvardagi “2017 – 2021- yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-5636-som farmoni, Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 6- apreldagi ”Umumiyoq o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli Qarori, 2018-yil 12-dekabrda “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-

<sup>4</sup> Юсупова Ш.Ж. Она тили таълими самарадорлигини оширишда илғор педагогик технологияларни жорий этиш / ноанъанавий усуллар ва компьютердан фойдаланиш/. пед. фан. номз. ...дис. автореф. – Т.: 1998, -25 б.; Адилова С. Ўзбек тили машгулотларини компьютер технологиялари воситасида ташкил этиш (Олий таълим муассасаларининг русийзабон гурухларида): пед. фан номз. ...дис. – Т.: 2004. -160 б.; Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари (академик лицейлар мисолида): пед. фан докт. ...дис. – Т.: 2005. – 277 б.; Умарова Н. Тил таълими ва таълимий-электрон ишланмалар // Тил ва адабиёт таълими. – 2005 йил – № 6. – Б. 75-79.

son Qarori va boshqa me'yoriy hujjatlar, yetuk mutaxassislarning tadqiqotlarida ilgari surilgan ilg'or innovatsion ilmiy g'oyalar A. Mirzayev<sup>5</sup>, X. Zohirov<sup>6</sup>, A.G'ulomov, S.Adilova<sup>7</sup>, E.G'oziyevlarning<sup>8</sup> tadqiqot predmeti bilan bog'liq ilmiy-metodik qarashlari tadqiqotning metodologik asosi vazifasini o'taydi.

### **Tadqiqotda qo'llanilgan usullar:**

**nazariy:** mavzuga doir ilmiy-metodik adabiyotlarni, lingvistika, pedagogika, elektron pedagogika, psixologiya, axborot texnologiyalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni o'rghanish va nazariy-mantiqiy tahlil qilish;

**lingvistik:** maktab grammatikasining fonetik, leksik, morfologik, sintaktik tahlillari;

**ijtimoiy-pedagogik:** kuzatish, so'rovnama, suhbat, dars tahlili, ilg'or metodik tajribalarni tizimlashtirish va umumlashtirish, o'quv-uslubiy adabiyotlar tahlili;

**eksperiment:** interaktiv diktant yaratish va foydalanish bo'yicha eksperiment tashkil qilish va o'tkazish, axborot texnologiyalarini tatbiq etish borasidagi yutuqlar, kamchiliklar tahlili;

### **Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati:**

Ishning ilmiy va amaliy ahamiyati shundan iboratki, interaktiv diktantlar bosma adabiyotlarni nashr qilishga sarflanadigan xarajatlar va diktant o'tkazish va tekshirish vaqtini tejaydi, an'anaviy diktant tahlili jarayonini avtomatlashtiradi. An'anaviy va elektron ta'limni integratsiyalash ta'lim sifatini takomillashtiradi, "O'rghanish oson, o'rgatish qiyin" emasligini, "O'rghanish ham, o'rgatish ham oson" ekanligini namoyon qiladi, ota-onalarning repititorlarga sarflaydigan mablag'larini kamaytiradi. Loyiha ana shu jihatlari bilan iqtisodiy va ijtimoiy samara keltira oladi. "Interaktiv diktant" dasturiy ilovasi umumta'lim maktablari

---

<sup>5</sup>Мирзаев А. Мактабда ўзбек орфографиясини ўргатишда диктант ўтказиш системаси: пед. фан. номз. ...дис. – Тошкент-Андижон: 1970. –363 б.

<sup>6</sup>Зохиров Х. VII – VIII синф ўқувчиларининг ёзма ишларидаги пунктуацион хатолар устида ишлаш: пед. фан номз. ...дис. – Тошкент: 1970.–231 б.

<sup>7</sup>Адилова С.А. Ўзбек тили машғулотларини компьютер технологиялари воситасида ташкил этиш (олий таълим муассасаларининг русийзабон гурухларида): пед. фан. номз. ...дис. – Тошкент: 2004. –160 б.

<sup>8</sup>Фозиев Э. Тафаккур психологияси. – Т.: Ўқитувчи. 1990. –184 б.; Фозиев Э. Таълим жараёнида ўқувчилар тафаккурининг ўсиши. –Т.: Ўқитувчи, 1980. – 43 б.

va ta’limning yuqori bosqichlarida ona tili va o‘zbek tili (davlat tili) fanlarini o‘qitish jarayonida, mustaqil ta’limni tashkil qilishda, korxona va muassasalarda xodimlarni sinovlardan o‘tkazishda hamda sinovlarga tayyorlanishda qulay vositadir. Dissertatsiyada bayon etiladigan ilmiy-metodik xulosalardan ona tilidan dastur, darslik, metodik qo‘llanmalar, elektron adabiyotlar yaratishda, ona tilini o‘qitish sifatini yaxshilashda, “Ona tilini o‘qitish metodikasi” fanining mazmunini belgilashda, shuningdek, o‘qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslari tinglovchilariga ona tilini o‘qitish yuzasidan ma’ruzalar o‘qishda foydalanish mumkin.

«Interaktiv diktant» dasturi Nukus DPI O‘zbek tili kafedrasida sinovdan o‘tdi. Sinovlarda o‘zbek tili va adabiyot bakalavr ta’lim yo‘nalishi talabalari, QR XTX qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasining tinglovchilar, Nukus shahridagi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi, qisman Xorazm viloyati tumanlaridagi maktablarning fan o‘qituvchilari hamda o‘quvchilar ishtirok etishdi. “Interaktiv diktant” dasturiy ilovasi savod.uz saytiga joylashtiriludi. Mazkur saytda mingga yaqin foydalanuvchi ro‘yxatdan o‘tgan va interaktiv diktantlardan foydalanishmoqda.

Tadqiqot bo‘yicha 2017 – 2019 yillar davomida Qoraqalpog‘iston Respublikasida ta’lim muassasalarida tashkil qilingan ochiq darslar, mahorat darslari va seminarlar tashkil qilindi. Tadqiqot natijalari muallif tomonidan Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutida o‘tkazilgan professor-o‘qituvchilarning an’anaviy ilmiy-metodik anjumanlarida, xorijiy ilmiy anjumanlardoqilgan ma’ruzalarda, e’lon qilingan ilmiy-metodik maqolalarda o‘z ifodasini topgan.

“O‘zbek tilidan interaktiv diktant” EHM uchun dasturi O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligida elektron hisoblash mashinalar uchun dasturlar reestirida 2018- yil 25- aprelda ro‘yxatdan o‘tkazilgan va dastur mualliflari SH.Yuldasheva, M.Bekjanova, N.Yuldasheva, Q.Gulmanova, X.Karimovlarga №DGU 05233 raqamli guvohnoma berilgan.

Ishni yakunlashda tadqiqotchining Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti magistratura mutaxassisligida tafsili davomidagi, hamda Nukus DPI qoshidagi QR XTX qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasidagi pedagogik amaliyoti, Nukus shahridagi 3-, 25-, 36-, 44-sonli hamda Amudaryo tumanidagi 39-son umumta’lim maktablaridagi ilmiy-metodik kuzatishlari, tajriba-sinov ishlari muhim manba vazifasini o‘tadi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 1 ta xalqaro anjumanda, Qoraqalpog‘iston respublikasida o‘tkazilgan mahorat maktablari, seminar-treninglarda muhokamadan o‘tkazilgan. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 4 ta ilmiy ish e’lon qilingan: 1 ta metodik ko‘rsatma, 1 ta maqola, 1 ta xorijiy anjuman to‘plamida tezis chop etilgan. 1 ta EHM uchun dastur guvohnomasi olingan (hammualliflikda).

**Dissertatsiya tuzilmasining tavsifi:** Tadqiqot uch bob, olti fasl, xulosa va tavsiyalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 67 betni tashkil etadi.

# **BIRINCHI BOB. O'QUVCHILAR SAVODXONLIGINI OSHIRISH**

## **PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA: DIKTANTLAR VA INNOVATSION**

### **TEXNOLOGIYALAR**

#### **1.1. Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda o'quvchilar savodxonligini oshirish pedagogik muammo sifatida**

O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lif standartida uqtirilishicha, "O'zbek tili ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatini kengaytirishga, ularda erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishga, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga xizmat qiladi". O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risidagi" qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablaridan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lifning barcha sohalarida mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalash eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. O'zbekiston pedagogikasi taraqqiyotiga olib kirilayotgan g'oya va ishlanmalar, metodik tavsiyalarda umumta'lif fanlari qatorida ona tili fani zimmasiga ham mustaqil fikrlovchi shaxsni kamol toptirish vazifasi yuklangan. Ammo haligacha o'z yechimini kutib turgan, hal qilinishi zarur bo'lgan muhim muammo ko'ndalang turibdiki, bu o'quvchilarning ona tilidan savodxonligi masalasidir. Aslida ona tili va adabiyot darslari zamirida savodxonlik va ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari turadi. Shu ma'noda mazkur fanlar orqali o'quvchi olamni taniydi deb aytish mumkin. O'quvchilarni inson, olam, jamiyat munosabatlarini chuqurroq anglashga o'rgatish, ularda ijtimoiy faol fuqarolik xususiyatlarini shakllantirish, egallagan bilim, malaka va ko'nikmalarini kundalik hayotda foydalanishga odatlantirish va bir vaqtning o'zida grammatik savodxon shaxsni kamolga keltirish oson ish emas. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 22- yanvardagi «2017 – 2021- yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi PF-5308-sod farmoni,

Davlat dasturining chora-tadbirlar rejasining 177-bandida «Xalq savodxonligini ko‘tarish, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning barcha sohalarida milliy boylik hisoblangan tilning rolini oshirish» bo‘yicha vazifa belgilab qo‘yilgan bo‘lib, xalq savodxonligi davlat ahamiyatiga molik masala sifatida e’tibor markaziga qo‘yilganligi beziz emas.

O‘tgan asrning o‘rtalarida rus tilshunosi Lev Vladimirovich Shcherba “noto‘g‘ri yozilgan harf, noto‘g‘ri yozilgan, ya’ni imloviy xato so‘z, noto‘g‘ri qisqartma butun diqqatimizni o‘ziga qaratib xatni o‘qib, uqib olishimizni nihoyatda qiyinlashtiradi. Xullas, savodsiz yozilgan xatni o‘qish mashaqqati hammaga ravshan”<sup>9</sup>, – deganida haq gapni aytgan. Bizning asrimizda bu muammoga har qadamda duch kelmoqdamiz. Keng jamoatchilik, olimlar “hozir o‘zbek tilini ona tili deb biladiganlarning, so‘zlashadiganlarning ona tilini bilish darajasi qanday?” degan savolni o‘rtaga qo‘yishyapti, ammo unga ijobiy javob berish mushkul ishdir. Birgina misol, oliy ta’lim rektorining tashabbusi bilan, universitetning barcha talabalarining o‘zbek tili bo‘yicha savodxonlik darajasini bilish uchun, ulardan diktant, bayon va erkin mavzuda insho olingan. Diktant yozish bo‘yicha birinchi o‘rinni o‘zbek tili va adabiyoti fakultetining talabalari egallashgan: ularning 27 foizi «2», 73 foizi «qoniqarli». Ikkinchi o‘rinda biologiya-kimyo fakultetining talabalari: ularning 67 foizi o‘tgan, 33 foizi «2» baho olgan. Boshqa fakultet talabalarining taqriban yarmi o‘tgan, yarmi o‘ta olmagan. Universitet bo‘yicha 52 foizga yaqin talaba o‘tgan, 48 foizi esa diktantdan «2» baho olishgan<sup>10</sup>. Bu bo‘lajak kadrlarning ahvoli. O‘z-o‘zidan, bunday vaziyatning sabablarini maktabdan qidiramiz. Vaholanki, ona tili fani o‘qituvchisi uzluksiz ravishda o‘quvchilarning imloviy, tinish belgilariga doir va boshqa xil xatolarini tuzatadi, baholaydi. Deyarli har kuni aksariyat o‘quvchilarning imlo va punktuatsion xatolari to‘lib-toshgan daftarlari, yozma ishlarini tekshirish o‘qituvchi uchun naqadar azob ekanligini faqat shu kasb egalarigina chuqr his qiladi. Bu

<sup>9</sup><http://www.ruthenia.ru/apr/textes/sherba/sherba20.htm>. Шерба Л.В. Безграмотность и ее причины.

<sup>10</sup>[QuvatovA](https://kun.uz/uz/news/2017/08/12/uzbek-tilining-mavkeini-osiris-buning-ucun-kandaj-coralar-kurilisi-kerak).https://kun.uz/uz/news/2017/08/12/uzbek-tilining-mavkeini-osiris-buning-ucun-kandaj-coralar-kurilisi-kerak

mashaqqatli ishni yengillashtirish yozma savodxonlikni oshirish masalasi bilan uzviy bog‘lanadi. O‘ylab qolasiz, o‘qituvchining mashaqqatli mehnatini osonlashtirish imkonsizmikin? Albatta, bugungi informatsion texnologiyalar asrida o‘qituvchi og‘irini yengil qiladigan kompyuter dasturlari muayyan darajada o‘qituvchi vazifasini bajara oladi. Jumladan, Play Google.com saytida ko‘ngilochar mobil ilovalar qatorida rus tili darsining har bir bosqichi uchun taqozo qilinadigan, shuningdek o‘quvchi mustaqil ta’lim olishi uchun qulay ilovalar taklif qilingan: “Репетитор по русскому языку”, “Диктанты. Русский язык”, “Ударение”, “Части речи”, “Аудиокурс. Русский язык”, “Правила по русскому языку”, “Пунктуация”, “Русский язык”, “Сочинение”, “Умный словарь”, “Как писать”, “Грамматика. курс”, “Орфография”, “Языковед”, “Орфография. Диктант”, “Словарные слова, “Учим русский”, “Орфография и пунктуация”, “Склонение”, “Спряжение”, “Фразеологический словарь”, “Словарь. Синоним”<sup>11</sup> kabi ilovalarni ko‘rib havasangiz keladi. Bu ilovalarning aksariyatida o‘qituvchining vaqtini, kuch-quvvatini sug‘urib oladigan yozma ish o‘tkazish va uni tekshirib baholash jarayoni muayyan vaqtda tez va oson bajariladi. Uning aksariyati tilning grammatikasini o‘rgatishga, o‘quvchi lug‘at boyligini oshirishga, til talaffuzini o‘zlashtirishga mo‘ljallangan. Ularni quyidagicha tasnif qilish mumkin:

- yangi mavzuni bayon qilishda bilimlarni vizuallashtirish orqali taqdim qilish dasturlari;
- o‘rganilgan mavzuni mustahkamlashga mo‘ljallangan dasturlar;
- o‘quvchilar bilimini nazorat qilish va baholashga mo‘ljallangan dasturlar;
- o‘quvchilarning mustaqil ishini tashkil qilishda “Repetitor diktant” o‘rgatuvchi dasturlari.

**«Репетитор онлайн»** esa interaktiv kurs hisoblanadi. Interaktiv diktant qismida harflar va tinish belgilari tushirilgan badiiy matn parchalari mavjud. Tushirilgan harf yoki tinish belgilari o‘rnida to‘g‘ri to‘rtburchak sariq rangda

---

<sup>11</sup><https://play.google.com>

ko‘rsatilgan. Zarur belgini qo‘yish uchun to‘g‘ri to‘rtburchakni chertish va ko‘rsatilgan variantlardan to‘g‘risini tanlash zarur. Barcha bo‘s sh o‘rnlarni to‘ldirib bo‘lgach, bajarilgan ishni tekshirib ko‘rish mumkin. Buning uchun «Проверить» tugmasi chertiladi. Agar javoblar to‘g‘ri belgilangan bo‘lsa, yashil rangda, agar noto‘g‘ri bo‘lsa, qizil rangda javoblar taqdim qilinadi. Shuningdek, matn oxirida to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblarning miqdori ham ko‘rsatiladi<sup>12</sup>. Bunday dasturlar o‘qituvchining mashaqqatli mehnatini bir qadar osonlashtiradi, albatta.

Play Google.com saytidan o‘zbekcha ilovalarni izlaymiz: “Donolar so‘zlaydi”, “Sirli sandiq”, “Тил ўрганиш сирлари”, “Рус тилини ўрганамиз”, “Корейс тили”, “Таржимон”, “Билимдон”, “Турк тилини ўрганамиз”, “Инглиз тилини ўрганамиз”, “Ха ёки йўқ”, “Ислар китоби”, “Ислар маъноси”, “Имло дастури”, “Топишмоқлар”, “Ўзбек халқ эртаклари”, “Алифбо -1”, “Инглиз ўзбек сўзлашгичи”, “Хотира машқлари”, “Ҳикматлар”, “Abt.uz – Абитуриент”, “Zukko – so‘z o‘yini” kabi ilovalar mavjud bo‘lib, aksariyati xorijiy tillarni o‘rgatishga mo‘ljallangan. Ayniqsa, “Imlo dasturi”ning imkoniyatlarini ko‘rib, uning muallifidan qayta-qayta minnatdor bo‘lasiz. Biroq bu ilovalar yuqorida sanalgan rus tilidagi ilovalarga qiyoslaganda yetarli emasligi, tilga oid mashq va topshiriqlarni qamrab olish bo‘yicha ilovalarning deyarli mavjud emasligi sizni hushyor torttiradi. Demak, o‘zbek tili grammatikasini o‘rgatishga, o‘quvchi lug‘at boyligini oshirishga, to‘g‘ri talaffuzni o‘rgatishga mo‘ljallangan ilovalarni o‘zbek tilida ham yaratish zarur.

Xullas, xorijda yozma ishlarni o‘tkazishni avtomatlashtirish va innovatsion diktant turlarining konseptual asoslari, ta’lim jarayoniga tatbiq etish yo‘llari taklif etilgan. Xorijiy tajribalardan o‘rganish va yozma ishlarni tekshirish va baholashdagi an’anaviy usullar bilan birga innovatsion texnologiyalarni respublikamiz ta’lim jarayoniga tatbiq qilish fursatini boy bermaslik va interaktiv diktantlarni yaratish hamda joriy etish zaruriyatga aylanmoqda.

---

<sup>12</sup><http://www.gramota.ru;interaktivnyy-diktant.htm>

<http://www.mk.ru/social/2016/01/26/proverit-svoyu-gramotnost-pomozhet-interaktivnyy-diktant.htm>

## **1.2. Diktant metodikasida innovatsiyalar va baholashning elektron tizimi**

Til ta’limida diktantlar o‘quvchilarning imloviy malakalarini rivojlantirish, nazariy bilimlarini amalda tadbiq etish, yozma nutqni to‘g‘ri rivojlantirish, shuningdek, tayanch va fanga doir kompetensiyalarni shakllantirish uchun o‘tkaziladi. Metodikaning yozma ishlarni o‘tkazish sohasida ham innovatsiyalar sezilarli darajada. Diktantlarning an’anaviy turlari bilan baravar yangi turlari kirib kelmoqda<sup>13</sup>.

Таълимий диктантларнинг ўтказилиш мақсадига кўра турлари		
<i>Орфографик характердаги таълимий диктантлар</i>	<i>Назарий билимларни мустаҳкамлаш характеридаги таълимий диктантлар</i>	<i>Нутқ ўстириши характеридаги таълимий диктантлар</i>
Кўрув диктанти	Топшириқли диктант	Ижодий диктант
Эшитув диктанти	Сайланма диктант	Ўз диктант
Изоҳли диктант	Тест диктант	Эркин диктант
Суҳбат диктанти	Мисол диктант	Тез диктант
Луғат диктант		
Видеодиктант		
Расм диктанти		
Чалғитма диктанти		

Jadvalda ko‘rsatilgan diktant turlarining aksariyati (ko‘rvuv, eshituv, izohli suhbat, lug‘at, topshiriqli, saylanma, ijodiy, o‘z, erkin diktantlar) ta’lim tizimida tarixan foydalanilib kelingan bo‘lsa, videodiktant, rasm diktant, chalg‘itma diktant, test diktant, misol diktant, tez diktant kabilar yangilik sifatida tatbiq qilinmoqda. Rus tili oiqituvchilari faoliyatida esa diktantlarni test bilan integratsiyalash tajribasini ko‘rishimiz mumkin. Diktantlar ayniqsa ta’limiy diktantlar grammatik va imlo mashqlari vazifasini bajaradi, ya’ni o‘quvchilarning til ta’limida nazariy

<sup>13</sup> Ўзбек тилини ўқитишида замонавий ёндашувлар ва инновациялар. Ўкув услубий мажмуя. Тузувчи Б.Супиева. Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети хузуридаги халқ таълими ходимларини кайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази. – Тошкент, 2018. 64 б.

bilimlarni amalda qo'llashdagi ko'nikma va malakalarini baholaydi. O.V.Gordeyenko nuqtayi nazaridan yondashib test atamasining ham o'quvchilarining ta'limiy yutuqlarini aniqlash va baholash sifatidagi diagnostika metodi ekanligini e'tiborga olib, rus tilini o'qitish metodikasida uni zamonaviy diktantlarni o'tkazish uchun foydalanishni tavsya qilayotganligini qo'llab-quvvatlaymiz<sup>14</sup>. Ingliz tilini o'qitishda samarali qo'llanilayotgan diktant turlari, nostonart yondashuv ham diqqatga sazovor. Dictogloss (sharhli diktant), supported dictation (tayanch so'zli diktant), interaktiv lug'at diktant, grammatik transformatsiyalangan diktant, bo'sh o'rinni diktant, O'zaro diktant (diktokomp), grammatik diktogloss, mavzuviy diktogloss, diktogloss –yo'riqnomalar ham innovatsiyalar sifatida 90-yillardan buyon foydalanimoqda<sup>15</sup>. Walking Dictation, Picture Dictation, Shadow Dictation, Song Dictation, Card Dictation, Spelling Dictation, Running dictation<sup>16</sup> kabi diktant turlari ham nafaqat ingliz tilini o'qitish, balki o'zbek tilini davlat tili sifatida o'qitish jarayoniga tatbiq qiinsa yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Bizning tadqiqotimizda diktantlarni avtomatlashtirish masalasi diktantlarni baholash bilan uzviy bog'lanadi. Ma'lumki, **Baholash** ta'lim jarayoning ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil etishdan iborat jarayondir. Ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv materiallari o'zlashtirilganligini, ko'nikma va malakalar hosil bo'lganligini tekshirish va baholash ta'lim jarayonining zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o'qitish natijalarini nazorat qilish emas, balki o'quv jarayonining turli bosqichlarida ta'lim

<sup>14</sup> Гордиенко, О. В. Современные средства оценивания результатов обучения: практикум / О. В. Гордиенко. — Ярославль: «Литера», 2011. — 132 с. 2 ; Граф Т. А. Взаимосвязанное использование диктантов и тестов в обучении русской орфографии // Современная филология: материалы IV Междунар. науч. конф. (г. Уфа, март 2015 г.). — Уфа: Лето, 2015. — С. 32-35. — URL <https://moluch.ru/conf/phil/archive/137/6755/> (дата обращения: 23.11.2018); Острикова, Т. А. Орфография в школе: полувековой опыт обучения / Т. А. Острикова. — М.: «Вербум-М», 2008. — 222 с.

<sup>15</sup> Антонова Т.В. Диктант в обучении иностранному языку как средство формирования интегрированного навыка Вестник КГУ. 2017.

<sup>16</sup> Полянская К.С. Современные виды диктантов как необходимость, диктуемая временем новой эпохи. <HTTPS://NAUCHFORUM.RU/CONF/PSY/XII/26606>; Букина И.В. Виды диктантов для проверки лексического запаса учеников.URL: <http://www.tea4er.ru/blogs/printblog?index.php?view=article&id=1554&tmpl=component&print=1>

oluvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir. Baholash natijasida tushuncha va qonun-qoidalarning qaysi birini qiyin, qaysi birini esa oson o‘zlashtirilishi aniq ravshan bo‘ladi. Bu ta’lim oluvchining ijodiy tarzda darsga tayyorgarlik ko‘rishi va o‘quv mashg‘ulotini o‘tkazishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Xuddi shuningdek, ta’lim oluvchiga ham ta’lim jarayonida qaysi o‘quv materialini yaxshi, qaysi qo‘niqarli va nimani yomon o‘zlashtirgani ma’lum bo‘ladi. Bilimlarni tekshirmsandan ta’lim oluvchi o‘z bilimlarini chuqur, har tomonlama va to‘g‘ri baholashga qodir emas. Ba’zan unga go‘yo o‘quv materialini yaxshi egallab olganday tuyuladi, tekshirish chog‘ida esa materialni yaxshi bilmasligi, yaxshi tushunmasligi ma’lum bo‘lib qoladi. Baholash natijasida, ta’lim oluvchilarning o‘rganilayotgan materiallarni bilish, tushunish, esda saqlab qolish, anglab olish, amalda qo‘llay olish, tahlil qilish va o‘z bilimlariga tanqidiy baho berish darajalari aniqlanadi. Bilimlarni, ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda ta’lim oluvchilarning o‘qishga, o‘z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi, qiyinchiliklarni yengish istagi tug‘iladi. Baholash hamisha ta’lim oluvchining shaxs sifatida o‘ziga nisbatan muayyan bir munosabatni hosil qiladi. Ta’lim oluvchini muntazam ravishda o‘z natijalari to‘g‘risida xabardor qilib turish, uning maqsad sari intilishiga va istaklarini ro‘yobga chiqarishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchining o‘ziga nisbatan munosabatini, tuyg‘ularini, uning xarakteridagi irodalilik, hamkorlik, o‘zaro bir-biriga yordam berish kabi sifatlarini shakllantirishga e’tibor qaratilishi lozim bo‘ladi. Ba’zan baholash jarayonida ta’lim oluvchi qo‘srimcha bilim, ko‘nikma va malakalarga ham erishadi. Ta’lim jarayonida o‘zlashtirmagan tushunchalarning mohiyatiga tushunib yetadi. Shu bois baholashni ta’lim olish jarayonining davomi deb ham aytish mumkin. Bilimlarni nazorat qilish va baholash davlat ahamiyatiga egadir. Baholash natijalarini umumlashtirib, ta’lim muassasasi jamoasining ta’lim-tarbiya sohasidagi faoliyatiga, o‘quvchilarning umumiyligi o‘zlashtirish darajasiga baho beriladi va tegishli xulosalar chiqariladi. Davlat ta’lim standartlarida

davlat tomonidan qo'yilgan talablar nechog'lik bajarilayotgani aniqlanadi. Natijalarni baholash orqali bir paytning o'zida butun ta'lim tizimi va uning komponentlari tekshirib ko'riliши kerak. Bu bilan talim tizimida kutilayotgan natijaga erishilayotganlik darajasi tekshirilib o'lchanadi. Baholash natijasida nafaqat ta'lim oluvchining, balki ta'lim beruvchining kuchli va kuchsiz tomonlari, shuningdek, o'quv jarayonidagi kamchiliklar ham aniqlanadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, baholashning mohiyati haqida quyidagi xulosalarni aytish mumkin:

- o'quv maqsadlariga erishilganlikni aniqlash uchun;
- keyingi bosqichga o'tishdan oldin avval o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash lozim;
- natijaga erishilganligini tasdiqlash uchun;
- ta'lim oluvchilarning qiziqishlarini aniqlash uchun;
- yutuq va kamchilikliarni aniqlash uchun;
- ta'lim beruvchi o'z faoliyatiga tuzatishlar kiritishi uchun;
- yalpi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- ta'lim jarayoni yuuqlarini aniqlash uchun;
- ta'lim oluvchilarni yutuqlarga qiziqtirish uchun;
- tashqi qiziquvchilarga, ish beruvchilarga,yuqori tashkilotlarga va ota – onalarga ma'lumot berish uchun.

### **Nimani baholash kerak?**

- nazariy bilimlarni;
- amaliy bilim va ko'nikmalarini;
- xulq- atvor va shaxsiy fazilatlarni.

Yuqorida ta'kidlanganligidek, nazariy bilimlar baholaniyotganida kognitiv o'quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi. Amaliy ko'nikma va malakalar baholaniyotganida, psixomotorik, xulq-atvor va shaxsiy fazilatlar baholaniyotganida esa effektiv o'quv maqsadlariga erishganlik darajalari

aniqlanadi. Bilimlarni tekshirish va baholash muayyan didaktik talablarga javob berishi kerak. Tekshirish va nazorat qilish sistemali doimiy tarzda bo‘lishi shart. Bu talabga rioya etilmasa ta’lim oluvchilarning o‘qishga bo‘lgan munosabati yomonlashadi, bilimlarning sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bilimlarni baholash individual harakterga egadir. Har bir ta’lim oluvchi uning qaysi bilimlari, ko‘nikma va malakalari baholaniyotganligini bilishi kerak. Ta’lim beruvchining savollariga va vazifalariga javob berishga tayyorlik holati bilimlarni tekshirish va baholash o‘quv jarayonining muhim bir bo‘lagi uning tarkibiy qismiga aylangan taqdirdagina ro‘y beradi.

**Baholash tamoyillari va shakllari.** Quyidagi beshta asosiy **tamoyillar** baholash tizimi samaradorligini poydevori hisoblanadi.

- o‘quv maqsadlariga asoslanganlik.
- haqiqiylik
- haqqoniylilik
- ishonchlilik
- qulaylik

**O‘quv maqsadlariga asoslanganlik.** Samarali baholashning asosiy tamoyillari o‘quv maqsadlariga asoslanganlik hisoblanadi. Baholashning sifati o‘quv maqsadlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri bo‘g‘liqdir. O‘quv maqsadlari baholash mazmunini aniqlab beradi. O‘quv maqsadlarining qo‘yilish darajasiga qarab, baholashning shakli va usullari tanlanadi. Shuningdek o‘quv maqsadlariga erishish uchun bajarilgan faoliyat natijasi, baholash mezonlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Har qanday baholar tizimi loyihalashtirilayotganda, baholash topshiriqlari berilagan ta’lim mazmuni doirasida bo‘lishi talab etiladi. Baholashni loyihalashtirayotganda, har doim quyidagi ikki savolni e’tiborga olish lozim:

1. Baholash topshiriqlari ta’lim jarayonidan ko‘zlangan o‘quv maqsadlarini to‘la aks ettiradimi?
2. O‘quv maqsadlari darajasida baholash shakllari, usullari va mezonlari to‘g‘ri tanlanadimi?

Masalan, yo‘l harakati qoidalari bo‘yicha olingan bilimlarni baholashda yozma test olish usuli mos kelishi mumkin. Lekin undan mashinani boshqarish malakalarini baholashdan foydalanib bo‘lmaydi. Bu malakalar o‘g‘zaki yoki yozma emas, balki amaliy faoliyatga asoslangan baholash usuli yordamida baholanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**Haqiqiylik.** O‘quv maqsadida ko‘zda tutilgan natijanigina baholashga qaratilgan topshiriq yoki test haqiqiy hisoblanadi. U baholanishi lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar sohasidagi natijalarga qaratilgan bo‘lishi lozim. Ta’lim oluvchining erishgan natijalari to‘g‘risida asoslangan va ishonchli axborotlar berish kerak. O‘lchanishi talab etiladigan narsalargina o‘lchanishi kerak. Ta’lim oluvchi egallagan bilim, malaka va ko‘nikmalar hamda shaxsiy fazilatlarni o‘lhash imkonini beradigan metodlardan foydalanish zarur.

**Haqqoniylit.** Bir biridan mustaqil ta’lim beruvchilar bir xil ta’lim oluvchilarga berilgan bir xil topshiriq va testlar bo‘yicha bir xil baho bergen xoldagina mazkur baholash haqqoniylit hisoblanadi. Bu haqqoniylit har xil vaqtarda berilgan baholar uchun ham taalluqlidir. Baholash tizimi o‘quv maqsadlariga mos bo‘lishi shuningdek baholash shart –sharoitlari va maqsadlari bilan ta’lim oluvchilar oldindan tanishgan bo‘lishlari lozim. Ta’lim oluvchilarga bir xil murakkablikdagi va hajmdagi topshiriqlar berilishi kerak.

**Ishonchlilik.** Natijalarni baholash mobaynida har xil usullardan foydalanish mumkin. Lekin bu usullarni tanlashga qo‘yiladigan asosiy shart ishonchlilik hisoblanadi. Uslub ishonchli bo‘lishi uchun baholash asosli va aniq ma’lumotlarga asoslangan bo‘lishi zarur.

Bunda topshiriq yoki testning o‘rganish maqsadlarini nazorat qilishga yo‘naltirilganligini qanchalik ishonchli ekanligini nazarda tutiladi. Baholash ishonchli bo‘lishi uchun ta’lim oluvchilarga bir-birlariga o‘xshash, ammo har xil sharoitlarda baholash o‘tkazilganda, natijalar bir xil bo‘lishi kerak.

Baholash metodining ishonchliligi turli metodlarning natijalari bilan taqqoslash orqali aniqlanadi. Baholash tizimi ishonchli bo‘lishi uchun turli

eksperimentlar yordamida baholash o‘tkazilganda, uning natijalari bir-biriga o‘xshash bo‘lishi kerak.

Baholash ishonchliliginig ikki tomoni bor:

1. Baholash usulining ishonchliligi yuqori bo‘lsa, o‘quvchining o‘zlashtirish darajasi baholashning har xil usullaridan foydalanganda ham o‘zgarmay qoladi.

2. Baholashning o‘zlashtirish darajasini hisobga olish ishonchliligi. Ta’lim oluvchining o‘zlashtirish darajasini baholash usullarining ishonchliligi deb, baholash boshqa joyda va boshqa imtihon oluvchi tomonidan o‘tkazilganda ham, uning bir xil bo‘lishi, o‘zgarmasligi tushuniladi. Baholash usullarining ishonchlilik darajasi quyidagi holatlarda ko‘proq bo‘ladi.

- hamma ta’lim oluvchilar qo‘yilgan talabni aniq tushunsa;
- baholash shartlari oldindan ma’lum qilinsa va unga rioya qilinsa;
- hamma natijalar baholashning oldindan kelishilgan mezonlariga to‘la asoslangan bo‘lsa;
- tasodifiy xatolarni kamaytirish maqsadida mos baholash turlari qo‘llanilsa.

**Qulaylik.** Baholash tizimi o‘quv maqsadlaridan kelib chiqqan holda, o‘quv va ishlab chiqarish standartlariga mos bo‘lishi, murakkab bo‘lmasligi, nazorat o‘tkazuvchi va ta’lim oluvchi uchun qulay bo‘lishi lozim. Baholashni o‘tkazishda imkon qadar kompyuterlardan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Topshiriq yoki test paytida ball beriladigan bo‘lsa, ball berish o‘rganish maqsadlarini nazorat qilishga moslashtirilgan bo‘lishi lozim. Bunda mavzuning muhimroq bo‘lgan qismlariga unchalik muhim bo‘lmagan qismlarga nisbatan ko‘proq ball berish kerak bo‘ladi.

**Baholash uning mohiyatidan kelib chiqib ikki xil shaklda o‘tkazilishi mumkin.**

1. Mezonga asoslangan baholash.
2. Meyorga asoslangan baholash.

**Mezonga asoslangan baholash.** Baholanuvchining ta’lim jarayonida qo‘lga kiritgan natijalarini, bilim, ko‘nikma va malakalarini oldindan belgilangan o‘quv maqsadlari asosida ishlab chiqilgan, hamma uchun umumiy va bir xil mezonlarga ko‘ra taqqoslash va o‘lchashdan iborat bo‘lgan baholash shaklidir. Bunday baholash mezonlani aniq belgilab beruvchi o‘rganish maqsadlari bo‘yicha natijalarga baho berish imkoniyatini yaratadi. Bu orqali natijalar to‘g‘ridan to‘g‘ri va xolis baholanadi, shuningdek, kuchli guruhlarni kuchsiz guruhlardan yaxshiroq farqlash imkonini beradi. Bu baholash shakli ikki bosqichdan iborat bo‘lib, birinchi bosqichda baholanuvchining erishgan natijalari aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa, natijalar mezonlarga taqqoslanadi va o‘lchanadi. Mezonga asoslangan baholashning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- o‘quv maqsadiga muvofiq baholanadi;
- ta’lim oluvchining o‘zlashtirish darajasini obyektiv baholaydi;
- baholash o‘zining aniq ko‘rsatkichlariga ega bo‘ladi;
- ta’lim oluvchi olgan bahosidan yo‘l qo‘ygan xatolarini yaqqol ko‘rib turadi;
- baholanuvchini ta’lim olishga yo‘naltiradi;
- baholanuvchilarning baholaniyotgan sohadagi kuchli va kuchsiz tomonlarini xolisona aniqlab beradi, ulaning o‘z bilimi va malakalariga bo‘lgan ishonchini oshiradi
- hamma uchun bir xil bilim va malaka talablarini o‘rnatadi;
- ta’lim mazmunini aniqlab beradi;
- baholanuvchilarning o‘z faoliyati natijalariga bo‘lgan masuliyatini oshiradi.

Mezonga asoslangan baholashning kamchiliklari esa quyidagilardan iborat:

- Mezonlarni ishlab chiqish ko‘p vaqt talab qiladi;
- Mezonlarning obyektivligi, xaqqoniyligi va aniqligini aniqlashga nisbatan o‘quvchilarning ko‘pligi;

– Ijtimoiy fan yo‘nalishlari bo‘yicha mezonlar ishlab chiqishda qiyinchiliklarga duch keladi;

Meyorga asoslangan baholash nisbiy baholash shakli bo‘lib, baholashdan so‘ng baholanuvchilarning ta’lim jarayonida qo‘lga kiritgan natijalarini o‘zaro taqqoslash orqali o‘lchashdan iborat.

Bu baholash shakli ham ikki bosqichdan iborat bo‘lib, birinchi bosqichda baholanuvchining erishgan natijalari aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa, bu natijalar o‘zaro taqqoslash orqali o‘lchanadi. Meyoriy baholashda baho bir necha ko‘rsatkichlarga va ta’lim olish shart –sharoitlariga ko‘ra o‘zgarishi mumkin bo‘ladi. Meyorga asoslangan baholashning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- ta’lim beruvchi ortiqcha vaqt sarflamaydi;
- turli shart-sharoitlarga oson moslashtirish mumkin;
- baho bo‘yicha ko‘rsatkichlar umumiy tarzda olinadi;
- muayyan baholanuvchilar guruhi ichida ularning o‘zlashtirish darajasiga qarab tabaqlashtirish imkonini beradi;
- baholash natijasida guruh ichidan ma’lum sondagilarni ajratib olish imkonini beradi;

Meyorlarga asoslangan baholashning kamchiliklari esa quyidagilardan iborat:

- bilimlarni obyektiv va haqqoniy baholashning pasayishiga imkoniyat yaratadi;
- baholashda bilim bilan xulqni baholash aralashtirilib yuboriladi;
- ba’zan xulqni baholash bilimni baholashni belgilab beradi;
- baholar ta’lim beruvchi tomonidan subyektiv belgilanishi mumkin;
- ta’lim oluvchilar nisbatan simpatik ham bahoni yuqori qo‘yib yuborishga olib keladi;

Baholash o‘tkazilish vaqtiga ko‘ra uch turga ajratiladi:

- boshlang‘ich baholash;
- joriy, ayni shakllantiruvchi baholash;

- yakuniy, ya’ni umumlashtiruvchi baholash;

**Boshlang‘ich baholash** ta’lim jarayoni boshida ta’lim oluvchilarning dastlabki bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash uchun o‘tkaziladi. Bunday baholash natijalari ta’lim jarayonining mazmuni va metodlari, shakllarini tanlash imkonini beradi.

**Joriy baholash** muntazam ravishda o‘tkazilib boriladi. U ta’lim jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni, ta’lim jarayoni samarasini tezkor aniqlab borish, o‘quv jarayonini muvofiqlashtirish va ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi qaytar aloqani ta’minlash imkonini beradi.

**Yakuniy baholash** ta’lim oluvchining ta’lim jarayonining ma’lum davridagi o‘zlashtirish natijalarini belgilangan mezon va standartlarga javob berishini aniqlaydi. Yakuniy baholash ta’lim jarayonining ma’lum bosqichi yakunida o‘tkaziladi. U joriy baholash natijalarini jamlaydi. Umumlashtiruvchi baholashni o‘tkazishda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

- Ta’lim oluvchi umumlashtiruvchi baholash nima uchun o‘tkazilishi haqida ma’lumotga ega bo‘lishi lozim. Bu uning baholashga tayyorgarlik ko‘rishiga olib keladi.
- Baholashni o‘tkazish shartlari unga jiddiy yondashishga, diqqatni chalg‘itadigan yoki tasodifiy uzulishlardan o‘zini chetga olishga hamda ta’lim oluvchining o‘z qobiliyatini namoyish qilishga imkon beradi.
- Baholash o‘tkazish sharoitida ta’lim oluvchi o‘zini erkin tutishi va nohushlik his etmasligiga imkoniyat yaratish kerak.
- Baholovchi va ta’lim oluvchi baholash nima maqsadda, u qachon, kim tomonidan va qanday o‘tkazilishini bilishlari muhim ahamiyatga egadir.
- Qo‘yilgan baho o‘quv natijasiga qay darajada erishganlikni tushunish va uni mujassamlashtirish uchun ahamiyatlidir.
- Ta’lim oluvchi oldindan belgilangan natijalar mezoni yordamida baholanishi lozim.

- Rejalahtirilmagan baholashni o‘tkazish maqsadga muvofiq emas.

### **Ta’lim maqsadlariga erishilganligini baholash:**

Baholash joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni o‘z ichiga oladi. Joriy nazorat o‘quvchini o‘zlashtira borayotganligidan mutassil xabardor qilib boradi, odatda joriy nazoratda bolaning bilimiga baho qo‘yilmaydi, intilishlari ma’qullanibboriladi, shu tariqa u bilimlarni shakllantirishda ishtirot etadi. Pedagogik texnologiyada xabardor bo‘lib borish ta’limda yo‘l qo‘yilgan xatoni tuzatish uchungina emas, ta’lim maqsadlarini aniqlashga ham xizmat qiladi. Yakuniy nazoratda rejalahtirilgan ta’lim maqsadiga erishilganlik baholanadi. Nazorat o‘g‘zaki, yozma va test shaklida bo‘lishi mumkin. Og‘zaki va yozma nazorat. Og‘zaki nazoratni yaxshi jihatlariga: o‘qituvchining o‘quvchi bilan jonli muloqoti, shaxsan muloqotda bo‘lishi: og‘zaki nutqning mashq qilinishi: bilimni chuqurroq aniqlash uchun qo‘shimcha savollar berish imkoniyati kabilar kiradi. Og‘zaki javob berish faol fikrlashga undaydi. Og‘zaki javob berishda yaxshi tayyorlangan o‘quvchi o‘z bilimdonligini, qo‘shimcha o‘rganganlarini namoyish etadi. O‘quvchi bilan bevosita aloqa natijasida so‘rash paytida bolaning bilim o‘zlashtirishi masalasida o‘qituvchida tug‘ulgan ayrim shubhalar bartaraf etiladi. Shu bilan birga o‘quvchining bilimini og‘zaki nazorat qilishda pedagogning shaxsiy xususiyat sifatlari aks etadi. Og‘zaki baholashda har bir o‘qituvchiga xos obyektivlik va subyektivlik munosabati namoyon bo‘ladi. Pedagogik tadqiqotlarda aniqlanishicha ikki imtihon oluvchining bir o‘quvchiga bir fandan qo‘ygan baholari 40-60 foizga mos keladi. Bir bolaga imtihonchilarining bittasi yuqori baho qo‘ygan bo‘lsa, ikkinchisi past baho qo‘yish hollari uchraydi. Bitta yozma ishning o‘ziga turli imtihonchilar turlicha baho qo‘yishlari mumkin. Xullas, og‘zaki va yozma imtihonlarga o‘quvchiga qo‘yiladigan baholarda subyektivlik alomati ko‘proq. O‘qituvchi ko‘pincha bahoni boshqa o‘quvchilarga nisbatan qo‘yadi, bunda qo‘yilayotgan baho kamaytirilishi ham, oshirib yuborilishi ham mumkin. Yozma imtihonni yaxshi tomoni – u o‘quv materialini bola o‘zlashtirib olganiga hujjatli dalil bo‘ladi, o‘quvchi o‘z fikrlarini qog‘ozda ifodalashi uchun amaliyatda ekspertlar o‘tkazgan yozma nazorat

obyektivroq baho qo‘yilishga imkoniyat yaratadi. Og‘zaki va yozma nazoratning an’anaviy tizimiga xos jiddiy nuqsonlar qatoriga quyidagilar kiradi.

1. Imtihonda o‘quvchi biletdagi 3-4 ta savollarga javob beradi, baho esa o‘quv predmeti dasturini bilgani uchun qo‘yiladi.

2. Besh balli baho shkalasi bilan bilim o‘zlashtirish darajalari orasidagi tafovutlarni aniq belgilashga imkoniyat bermaydi.

3. Og‘zaki va yozma imtihonlar bilim o‘zlashtirish sifatini obyektiv, aniqlik va asosli baholashni ta’minlay olmaydi.

4. Og‘zaki so‘rashga, shuningdek yozma ishlarni tekshirishga ko‘p vaqt ketadi.

5. Og‘zaki va yozma nazorat uchun kompyuterlarni ishlatish qiyin, ularni avtomatlashtirish qiyin. Bu jihatda test nazorati ustunlikka ega.

**Test nazorati.** Test nazoratining yaxshi tomonlariga quyidagilar kiradi:

1. Yaxshi tuzilgan pedagogik test obyektiv pedagogik o‘lchashning instrumenti bo‘lib, uning natijasi nazorat o‘tkazuvchi odamga bog‘liq bo‘lmaydi.

2. Pedagogik test o‘quv materiali mazmunini to‘liq qamrab olishi mumkin, ta’lim natijasini test usulida o‘lchashda- hamma o‘quvchilarga nisbatan bir xil, oldindan belgilangan shkalaga belgilangan aniq va to‘g‘ri baho qo‘yiladi.

3. Test nazoratida texnikani ishlatish qulay, bu ma’lum o‘quv materialini yokibutun bir fanni, nisbatan oz vaqt kuch sarflab, ommaviy nazorat qilishga imkon beradi.

4. Test nazoratini kompyuterlar vositasida avtomatlashtirish oson. Bu uning muhim ustunliklaridan biridir.

Lekin test usuli ham nuqsonlardan xoli emas, masalan, test nazoratining ko‘p shakllari o‘quvchining og‘zaki va yozma javoblarini mustaqil ifodalash imkoniyatidan mahrum etadi. O‘quvchining ruhiy kechinmalari ham o‘qutuvchi oldida erkin javob berayotganidagidek namoyon bo‘lmaydi;

Bilimdonligi, shaxsning o‘zigagina xos ruhiy xususiyatlarini ko‘rsatish imkonи yo‘q. Imtihon topshiruvchi to‘g‘ri javobni tanlashigina mumkin, xolos.

Shunga qaramay pedagogik testlarning ijobiy imkoniyatlari katta, ulardan o‘rinli, to‘g‘ri foydalanish ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida o‘qish va o‘qitish sifatini oshirishga xizmat qiladi. Har bir pedagog, ta’lim boshqaruvi idoralarining xodimlari test madaniyatini test nazariyasi va amaliyotini chuqr o‘rganishlari lozim.

Pedagogik testlarni qo‘llash o‘qitish jarayoni va natijalariga katta ta’sir o‘tkazishi mumkin: sifatli tuzilgan testlar o‘quvchining bilish faolligini oshiradi va aksincha yomon tuzilgan testlar o‘qish jarayoniga salbiy ta’sir etishi ham mumkin.

**Baholash xatoliklari.** Ta’lim jarayonida ba’zi holatlarda baholashga subyektiv yondashishlarga duch kelamiz. Bunday yondashishga **baholashdagi xatoliklar** deb ataymiz. Ta’lim beruvchining shaxsiy qarashlari bilan bog‘liq bir necha baholash xatolari mavjud:

**Hayrixohlik xatosi.** Agar ta’lim beruvchi biror ta’lim oluvchiga nisbatan xayrixohlik bilan qarasa, bu bahoning biroz yuqoriroq bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

**Yuqori talab qo‘yish xatosi.** Agar ta’lim beruvchi o‘ziga nisbatan yuqori talablar qo‘ysa va xuddi shunday yuqori darajadagi talablarni ta’lim oluvchilarga nisbatan qo‘llasa, bu bahoning biroz pastroq bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

**O‘rtacha baho berish xatosi.** Bu xato ta’lim oluvchilarning natijalari o‘rtacha baholanishini bildiradi. Buning sabablari ta’lim beruvchining o‘ta yaxshi va o‘ta yomon baho berishdan qo‘rqishi bo‘lishi mumkin.

**O‘z fikrini o‘zgartirmaslik xatosi.** Ta’lim beruvchi o‘zining birinchi fikrini o‘zgartirishni xohlamasligi tufayli, o‘z nazoratining natijalarini o‘zgartirishsiz qoldiradi. Bir marta sodir bo‘lgan voqeа tufatli ta’lim beruvchida biror ta’lim oluvchi to‘g‘risida qolgan ijobiy yok isalbiy taassurot, keyinchalik bu ta’lim oluvchining shaxsiyatiga oid barcha boshqa xususiyatlariga e’tibor bermasligiga olib keladi.

**Yoqtirmaslik xatosi.** Biror ta’lim oluvchining yoqtirmasligi yoki unga nisbatan salbiy fikrda bo‘lishi tufayli ta’lim beruvchi ta’lim oluvchiga yomon baho qo‘yadi. Bu xato “hayrixohlik xatosining“ aksidir.

Ta’lim beruvchining baholashdagi xatoliklarini oldini olish uchun quyidagilarga amal qilish kerak:

- baholash mezonlarini aniq ishlab chiqish va ularni to‘g‘ri tanlash;
- baholashdan oldin ta’lim oluvchilar bilan o‘quvchilar va baholash mezonlarini muhokama qilish;
- nazorat varaqasini ishlab chiqish;
- baholovchining bir emas, balki ikkita bo‘lishi;
- baholash usullarini to‘g‘ri tanlash;
- baho mezonlariga muvofiq qo‘yilgach, ta’lim oluvchilarga ma’lum qilish;
- baholash topshiriqlarini va ularga javoblarni imkon borichi yozma ravishda o‘tkazish va rasmiylashtirish;
- ta’lim beruvchi ta’lim oluvchi bilan birgalikda olingan baholarning natijalarini va yo‘l qo‘yilgan xatolarini muhokama qilish hamda sababini aniqlash;
- Xatolarni tuzatish chorasini belgilab olish.

Baholash bo‘yicha ushbu nazariy bilimlarga tayangan holda baholashni maqbullashtirishning choralarini izlash, ayniqsa yozma ishlar ko‘p o‘tkaziladigan til mashg‘ulotlari uchun avtomatlashtirilgan dasturlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

## **IKKINCHI BOB. INTERAKTIV DIKTANT – SAVODXONLIKNI BAHOLASHNING ELEKTRON TIZIMI**

### **2.1. An'anaviy va interaktiv diktant xususiyatlari**

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga navbatdagi murojaati o‘ta muhim masala – iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan Raqamli iqtisodiyot milliy kontseptsiyasini ishlab chiqish, shu asosda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturini hayotga tatbiq etish haqida so‘z yuritildi<sup>17</sup>. Albatta, bu borada axborot texnologiyalari mutaxassislari, iqtisodchilar, moliyachilar, bojxona xodimlari, tadbirkorlik, xalq xo‘jaligi va sanoat sohasidagi barcha kasb-kor egalari o‘z oldilariga qo‘yilgan vazifalarni anglab yetishlarida shubhaga o‘rin qolmasligi aniq. Bu borada metodist olimlar ham muhim bir fikrni e’tibor markaziga olib chiqishmoqdaki, bu raqamlashtirishni ta’lim sohasidan boshlash kerakligi haqidagi qarashlardir. Jumladan, p.f.n., dotsent Sh. Yuldasheva shunday yozadi: “Mazkur dastur bir qarashda iqtisodiyot sohasiga taalluqli ekanligi kunday ravshan bo‘lib tursa ham, ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan biz – o‘qituvchilar zimmasiga ham ulkan vazifalar yuklaydi. Chunki mamlakatning iqtisodiy hayoti, barcha sohalarga raqamli texnologiyalarni tatbiq qilish bo‘yicha islohotlar va ilg‘or texnologiyalar, tabiiyki, ta’lim sohasini chetlab o‘tishi mumkin emas. Aksincha raqamli iqtisodiyot asosini kadrlar va ta’lim tashkil qiladi. Shunday ekan, raqamli O‘zbekiston kelajagi hozirda maktab partasida o‘tirgan bolalarimiz, yoshlarimiz qo‘lidadir. Albatta, ular raqamli iqtisodiyotni boshqara oladigan, taraqqiy ettiradigan darajada sifatli va zamonaviy bilimga ega bo‘lsa, kelajagimiz buyuk bo‘ladi, raqamli O‘zbekiston xavfsizligi ta’minlanadi. Nazarimizda, bunda nafaqat aniq va tabiiy fanlar, balki barcha fanlar hamda ular uchun “ostona” sanaladigan ona tili ta’limiga ham e’tibor kuchaytirish taqozo qilinadi. Vaholanki, informatika

---

<sup>17</sup>Ўзбекистон Республикаси Президенти матбуот хизмати давлат раҳбарининг 2019 йил учун мўлжалланган энг муҳим устувор vazifalar ҳақидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2018 йил 28 декабрь.

tilidan tashqari, ham xorijiy tillardan, ham ona tilidan savodxon dasturchilar tayyorlash masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Shuningdek, davlat boshqaruviga, davlat va jamiyatning barcha sohalariga savodli, layoqatli kadrlar tayyorlashdek zalvorli vazifa to‘la ado etilmayotganligi sir emas<sup>18</sup>.

Tarixchilarning e’tirofiga ko‘ra, bashariyat tarixida ilk maktablar ibtidosi qadimgi shumer maktablari hisoblanar, eramizdan oldingi uchinchi ming yilliklarning boshida ilk ta’limning ikki ustunidan biri ona tili darslari bo‘lgan ekan. Binobarin, besh ming yildan beri ona tili fani o‘qituvchisi o‘quvchiga o‘z ona tilini o‘rgatish va o‘qitishning eng qulay, eng samarali usularini izlash bilan band. Barcha fanlarni o‘qitish tizimida bo‘lgani kabi tamaddunning tinimsiz taraqqiyoti ona tili o‘qitishning fan sifatida takomillashishiga imkoniyatlar ochgan. Biroq ona tilidan yetuk, savodxon shaxsni tarbiyalash masalasi muammoligicha qolib kelmoqda: til o‘qitishda azaliy va yechilmay kelayotgan muammolarning eng asosiysi o‘quvchilarning yozma savodxonligidir. Shuning uchun ham bu masala maktab miqyosidan chiqib, davlat ahamiyatiga molik masala sifatida kun tartibiga qo‘yilmoqda. 2017- yildan e’tiboran Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti va UZINFOCOM bilan hamkorlikda o‘zbek tilida yozma savodxonlik bo‘yicha o‘z bilimlarini tekshirish istagida bo‘lganlar uchun diktant tashkil qilinmoqda. 21- oktyabrda ilk bora ommaviy diktant o‘tkazilib, diktant natijalari diktant.uz<sup>19</sup> sayti orqali e’lon qilindi. Ommaviy diktant ikkinchi bora 2018 yil 11 mayda o‘tkazilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5308-son farmoni, ya’ni “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshiriladigan davlat dasturining chora-tadbirlar rejasining 177-bandiga ko‘ra “Xalq savodxonligini ko‘tarish, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning barcha sohalarida milliy boylik hisoblangan tilning rolini oshirish”<sup>20</sup> ga qaratilgan vazifaning ijrosini ta’minalash

<sup>18</sup> Юлдашева Ш. Рақамли таълим технологиялари “Рақамли ўзбекистон – 2030” дастури учун пойдевордир. Тилшунослик ва адабиётшуносликнинг долзарб масалалари. Илмий маколалар тўплами. – Тошкент, Фан ва технологиялар, 2018.

<sup>19</sup><http://www.diktant.uz>

<sup>20</sup>«2017 – 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясининг «Фаол тадбиркорлик, инновацион foялар ва технологияларни кўллаб-куватлаш йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида»ги ПФ-5308-сон фармони

maqsadida 2018 yil 16 – 20- oktyabr oralig‘ida markaziy shaharlarda tashkil etildi. 2019-yilda mazkur aksiya 28-mayda “Yuksak savodxonlik bilan kelajak sari!” shiori ostida tashkil etilib, bu jarayonga ilk bora xorijliklar ham jalb qilindi.

Ommaviy diktant mavzusi “TILIMIZ – O‘ZLIGIMIZ”, deb nomlanib, atoqli yozuvchi Ulug‘bek Hamdam matni muallifidir. Matnni O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Fatxulla Ma’sudov o‘qigan. Diktant videosi namoyish etilib, song an’anaviy metodika bo‘yicha yozdirildi.

Diktant.uz sayti ommaviy diktantlarni baholash uchun mezon taklif qiladi:

Diktant yozish uchun ajratilgan vaqt: 60 daqiqa.

Diktant lotin yoki kirill yozuvi asosidagi o‘zbek alifbosida yozilishi mumkin.

Diktantni yozishda xatoga yo‘l qo‘yilsa, ehtiyyotkorlik bilan xato ustidan chiziq chizib, uning tepasiga to‘g‘ri variantni yozish mumkin.

Diktantni tekshirishda xatolar tagiga chizish hamda daftar hoshiyasiga belgilar chiqarish yo‘li bilan ko‘rsatiladi va hisobga olinadi. Xatolarni ko‘rsatish uchun imlo xatosi ostiga ikki chiziq (=), tinish belgilardagi xato ostiga bir chiziq (-), uslubiy xato ostiga to‘lqinli chiziq (~) chiziladi. Daftar hoshiyasidagi / (shtrix) imlo, V (ve) tinish belgisidagi, W (dubl ve) uslubiy xatolarni bildiradi. Z (zet) abzasni, ba’zan matndagi behuda bo‘sh qoldirilgan yoki noo‘rin band qilingan satrlarni bildiradi.

Quyidagilar **qo‘pol (jiddiy) xato** sifatida qabul qilinadi:

- juft so‘zlarni yozishda, satrdan satrga ko‘chirishda defis qo‘ymaslik, shuningdek, defis o‘rnida tire ishlatish va aksincha;
- muayyan gapga xos tinish belgilarini qo‘llamaslik yoki noo‘rin ishlatish (masalan, gap oxirida qo‘yilishi shart bo‘lgan nuqta, so‘roq, undov, ko‘p nuqta, nuqtali vergul kabilarni tushirib qoldirish);
- so‘z shakllarini qorishtirish, almashtirib qo‘llash, masalan, yasovchi qo‘sishchalarni noto‘g‘ri ishlatish: *bevosita – bavosita; beobro – baobro; sinfdosh – hamsinf; hamqishloq – qishloqdosh.*

Quyidagilar **qo‘pol bo‘lmagan (juz’iy) xato** sifatida qabul qilinadi:

- bir tinish belgisi o‘rnida ikkinchisini almashtirib qo‘llash yoki qo‘sh tinish belgilardan birortasini tushirib qoldirish (masalan, qavslar yoki qo‘shtirnoqlardan bir elementini tushirib qoldirish kabi);
- ba’zi joy nomlari, shaxs otlari yoki personajlar ismini nuqsonli yozish (*Ham-robibi - Hamrobuvi, Shchedrin - Shedrin*);
- tinish belgilarining birgalikda ishlatilishidagi tartibning buzilishi yoki bittasining tushib qolishi: ?! shaklda emas, !? shaklda qo‘llash; !... shaklda emas, ??? shaklda qo‘llash kabi;
- sostavli atoqli atamalarni yozishda bosh harflarni nuqsonli ishlatish: *Xalqlar do’stligi saroyi – Xalqlar Do’stligi Saroyi; Yangi Urganch – yangi Urganch* kabi;
- yarim qavsdan so‘ng nuqta ishlatish yoki undan keyingi so‘zni (turdosh otni) bosh harf bilan yozish;
- ba’zi so‘zlarni ikki xil ishlatish: *oliy qimmat - olhimmel; hamma vaqt - hammavaqt; obi havo - ob-havo.*

Muayyan grammatik hodisa va bir orfografik, punktuatsion, uslubiy qoida bilan bog‘liq nuqsonlar bir xil tipdagi xatolar hisoblanadi. Bir xil tipdagi xatolarning hammasi bitta xato sanaladi va bu baholash uchun mezon bo‘ladi. Masalan, besh o‘rinda **h** o‘rnida bir so‘zda **x** yozgan bo‘lsa, hammasi **bitta orfografik xato** hisoblanadi;

Agar diktantda qaratqich belgisini 3 o‘rinda noto‘g‘ri qo‘llagan bo‘lsa, **bitta uslub xatosi sanaladi**.

Takroriy va tasodifiy xatolar uchun ball ayirilmaydi:

- Masalan *tushunmoq, qutulmoq, turg‘unlik, sukunat* kabi so‘zlar barcha o‘rinlarda to‘g‘ri yozilib, bir o‘rinda *tushinmoq* tarzida ishlatilsa, tasodifiy xato sanaladi agar *qutulmoq* so‘zi besh o‘rinda *qutilmoq* tarzida qo‘llansa, takroriy xato hisoblanadi;
- 1441 o‘rnida 1941 yozib qo‘yilsa, tasodifiy xato hisoblanadi. Takroriy va tasodifiy xatolar diktantda tuzatiladi, lekin jiddiy xato hisoblanmaydi, ya’ni baholash mezoni va me’yoriga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatmaydi.

Har bir diktant ikki martadan tekshiriladi. “5” bahoga da’vogar diktant uch marta tekshiriladi. Baholash oxirgi tekshiruvdan so‘ng amalga oshiriladi.

## 2.1-jadval. Baholash mezoni

Baho	Xatolar soni: orfografik/punktuatsion								
“5”	0/0	0/1							
“4”	0/2	0/3	0/4	3/3					
	1/0	1/1	1/2						
	2/0	2/1	2/2						
	3/0	3/1	3/2						
“3”	0/5	0/6	0/7	0/8	5/6				
	1/3	1/4	1/5	1/6					
	2/3	2/4	2/5	2/6					
	3/4	3/5							
	4/0	4/1	4/2	4/4	4/5				
	5/0	5/1	5/2	5/3	5/4	5/5			
	6/0	6/1	6/2	6/3	6/4	6/5			
	7/0	7/1	7/2	7/3	7/4	7/5	7/6	7/7	
“2”	8/0	8/1	8/2	8/3	8/4	8/5	8/6	8/7	
								8/8	

**Eslatma:** Xatolar nisbati 8 ta imlo, 8 ta ishorat xatolardan oshsa, savodxonlik uchun ball qo‘yilmaydi.

Bu xayrli ish, albatta, jamiyatda savodxonlikni oshirishga ijobiyligi ta’sir ko‘rsatishi shubhasiz. Til ta’limida yozma savodxonlikni qaror toptirishda yozma ishlarning ayniqsa, diktantlarning o‘rnini alohidadir. Ma’lumki, til ta’limida diktantlar:

- o‘quvchilarning imlo va tinish belgilariga doir bilimlarini, hosil qilingan malakalarini mustahkamlaydi;
- o‘zbek tilining muhim orfogramma va punktogrammalarini puxta o‘zlashtirib olish imkoniyatini beradi;

– o‘quvchilarning “til sezgirligi”ni kengaytiradi, fikrlash qobiliyatini hamda nutqini o‘stiradi.

Fan o‘qituvchilar diktantni tekshirish va tahlil qilishning mashaqqatli mehnat ekanligini yaxshi bilishadi. Nazarimizda, an’anaviy diktantlarni o‘tkazish bilan bir vaqtida o‘rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturlarning kompyuter va mobil versiyalarini yaratish va ommalashtirish ana shu mashaqqatli mehnatni osonlashtirishi mumkin. Bunda kompyuter dasturchilari hamda ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilarining hamkorlikdagi faoliyatini tashkil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada Rossiya Federatsiyasi ta’lim tizimida muayyan muvaffaqiyatlarga erishilmoqda. Gramota.ru, didaktor.ru, inetgramotnost.ru, mogu-pisat.ru, mk.ru kabi saytlar bilan tanishish, shuningdek, rus tilini o‘qitish jarayonini interaktivlashtirish bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarni o‘rganish, tahlil qilish interaktiv diktantlarning samaradorligini tasdiqlaydi<sup>21</sup>.

Interaktiv diktant an’anaviy diktantdan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi: an’anaviy diktant matni o‘quvchiga o‘qituvchi tomonidan o‘ziga xos metodikaga amal qilingan holda o‘qib turib yozdirilsa, **interaktiv diktant matndagi muayyan harf yoki tinish belgilar tushirilib, bo‘s sh o‘rinlarga bir necha variantlar taklif qilinadigan, foydalanuvchining bo‘s sh o‘rinlarga mos harf yoki tinish belgilarni tanlashi talab qilinadigan avtomatik tizim hisoblanadi.** Tizim foydalanuvchining imlo va punktuatsion savodxonligini avtomatik ravishda tekshirib beradi. Yo‘l qo‘yilgan xatolar miqdorini ko‘rsatadi va xato bo‘yicha izoh beradi. Qisqacha ta’riflaganda, interaktiv diktant onlayn rejimda ona tilidan savodxonlikni tekshirish imkoniyatini beruvchi xizmat turi sanaladi<sup>22</sup>. Bunday diktantlarga oldindan o‘qilib tasmaga muhrlangan matnning audiofayli joylashtirilishi ham mumkin.

---

<sup>21</sup>Ковина Т.П., Кульчицкая А.И. Актуальная методика интерактивного обучения русскому языку. Известия МГТУ «МАМИ» №4(22) 2014. <http://wwwcyberleninka.ru>; Егоров И.А. Интерактивный диктант. <http://wwwscienceforum.ru>;

<sup>22</sup>WWW. inetgramotnost.ru

## **2.2. Savod.uz sayti va “Interaktiv diktant dasturi” loyihasi**

Ta’lim muassasalarining, kafedralarning, o‘qituvchilarning veb-saytlarini yaratishdan maqsad O‘zbekiston Respublikasi yoshlarini mutaxassisliklar bo‘yicha yo‘nalishlar va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari va boshqa ma’lumotlar bilan tanishtirish, ta’lim uchun zarur bo‘lgan elektron resurslarni joylashtirishdan iborat.

Veb sayt – bu ta’lim muassasalarining, kafedraning yoki o‘qituvchining elektron jurnali bo‘lib, biror bir sohaga, faoliyatga, voqeja va hodisaga bag‘ishlangan ma’lumotlarni o‘zida jamlagan Internetdagi sahifalar majmuidir.

Dunyoda birinchi ochilgan sayt 1990-yilda info.cern.ch deb nomlandi. Uni Tim Berners-Li ishlab chiqqan. Hozirgi kunda Internetda 200 mln. dan ortiq saytlar mavjud bo‘lib, ular orasida ta’limiy saytlar ham salmoqlidir.

O‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar, ona tili fan o‘qituvchilari, maktab o‘quvchilari uchun didaktik materiallar, elektron resurslar taqdim qilinadigan saytga ehtiyoj mavjud edi. Shu sababli Nukus DPI O‘zbek tili kafedrasida masofadan turib ta’lim olish va mustaqil turda topshiriqlarni bajarish imkonini beradigan savod.uz sayti yaratilib, elektron axborot-resurslarni tizimli holda joylashtirish boshlandi. Sayt yaratishga turtki bo‘lgan muhim sabab o‘quvchilarning, umuman, keng jamoatchilikning o‘zbek tilidan savodxonligini oshirishga bo‘lgan ehtiyojning katta ekanligidir.

Xorijiy tajribalardan o‘rganish va yozma ishlarni tekshirish va baholashning an’anaviy usullari bilan birga innovatsion turlarini ona tili ta’limi tatbiq qilish savodxonlikni oshirishga, o‘quvchilarning ona tilini o‘rganishga motivatsiyasini kuchaytirishga xizmat qilish mumkinligini e’tiborga olgan holda Nukus davlat pedagogika instituti O‘zbek tili kafedrasida kafedra professor-o‘qituvchilari, magistrant va talabalar hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasining bir guruh o‘zbek tili va adabiyot fani o‘qituvchilari hamkorligida ona tili ta’limi uchun elektron adabiyotlar yaratish jarayonini jadallashtirish, “Interaktiv diktant” dasturiy ilovasini yaratish, elektron adabiyotlardan foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Tadqiqotlar doirasida maxsus dastur yaratilib, “O‘zbek tilidan

“interaktiv diktant” EHM uchun dasturi O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligida elektron hisoblash mashinalar uchun dasturlar reestirida 2018-yil 25-aprelda ro‘yxatdan o‘tkazildi va dastur mualliflari Sh.Yuldasheva, M.Bekjanova, N.Yuldasheva, Q.Gulmanova, X.Karimovlarga №DGU 05233 raqamli guvohnoma berildi.

Interaktiv diktant dasturi zamonaviy dasturlash texnologiyalaridan foydalanan holda yaratilgan **Savod.uz** saytiga joylashtirildi.

Albatta, bunday dasturiy mahsulotni yaratishda kompyuter dasturchilari hamda ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilarining hamkorlikdagi faoliyatini tashkil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa fan o‘qituvchisining o‘zi mustaqil ravishda, kompyuter muhandisi ishtirokisiz interaktiv diktantlar yaratishiga erishish katta ehtiyojga aylanmoqda. Buning uchun mualliflik dasturlarining ayrimlari bilan yaqindan tanishish taqozo qilinadi. Demak, xorijiy tajribalardan o‘rganish va yozma ishlarni tekshirish va baholashdagi an’anaviy usullar bilan birga innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq qilish fursatini boy bermaslik va interaktiv diktantlarni yaratish hamda joriy etish zaruriyatga aylanmoqda. Shuni nazarda tutgan holda ilmiy innovatsion guruh “Interaktiv diktant” loyihasi ustida ish boshladi va Savod.uz sayti ishga tushirildi.

### Innovatsion loyiha rahbari va loyihaning asosiy ijrochilari



Yuldasheva Shaxlo Shukurlayevna



Bekjanova Munira Azatovna

Loyiha rahbari. Pedagogika fanlari nomzodi, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti O‘zbek tili kafedrasи mudiri

Ijrochi. Nukus shahar XTMFMT va TE bo‘limiga qarashli 22-sон  
ixtisoslashtirilgan davlat umumta‘lim maktabi o‘zbek til fani o‘qituvchisi

## IJROCHILAR



Karimboyeva Shoxida  
Baxtiyorovna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika  
instituti o'zbek tili va adabiyoti magistratura  
mutaxassisligi talabasi



Yuldasheva Nazokat  
Shukurlayevna


Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika  
instituti o'zbek tili va adabiyoti magistratura  
mutaxassisligi talabasi



Gulmanova Qunduz Erimmatovna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika  
instituti o'zbek tili va adabiyoti bakalavr  
ta'lim yo'nalishi talabasi

## LOYIHA HAQIDA



Savod.uz sayti orqali onlayn rejimda maktab va akademik litsey  
o'quvchilari, talabalar, katta yoshdagilar o'zlarining savodxonlik darajasini  
tekshirib ko'rishi mumkin.

Interaktiv diktantlarimiz ayniqsa maktab o'quvchilari uchun o'quv yili  
davomida o'tkaziladigan diktanlarni yozish oldidan mashq vazifasini  
bajarishi mumkin.



Imlo va punktuatsion bilim, malaka, ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam  
beruvchi taqdimotlar



Bilim, malaka, ko'nikmalarni sinash uchun interaktiv diktantlar



Bilim, malaka, ko'nikmalarni sinash uchun interaktiv mashqlar

### 2.1.-rasm. Innovatsion loyiha ishtirokchilari

Savod.uz sayti zamonaviy dasturlash texnologiyalaridan foydalilanilgan holda  
yaratildi.

Ma'lumki, Webda ma'lumotlar sahifa ko'rinishida beriladi. Bu sahifalar  
odatda, HTML hujjat, ya'ni HTML (Hyper Text Markup Language – gipermatni)

belgilash tili) tilida (umumiy holda til deyilmoqda, aslida dasturlash tili emas) yozilgan hujjat deb qaraladi. Bu holda yozilgan hujjatlarni ko‘rish uchun maxsus dasturlar ishlatiladi. Bunday dasturlar Brower deyiladi.

Brouzerlar gippermatnli (kodli) sahifalarni foydalanuvchi tushunadigan tilga o‘zgartirib beradi. Bu dasturlarning bir qancha turlari mavjud. Xususan, ulardan ko‘p ishlatiladigan Internet Explorer, Opera, Xrom, Mozilla va boshqalardir. O‘z navbatida bu brouzerlar ham o‘z versiyalariga ega. Windows muhitida standart ishlatiladigan brouzer bu Internet Explorer sanaladi.

Hujjatni barcha komp`yuterlar tushunadigan holda ko‘rsatish uchun komp`yuterlarning tushunadigan yagona tilini bilish lozim bo‘ladi. Shu sababli World Wide Web da qo‘llaniladigan HTML tili yaratilgan. Ushbu til birinchi marta Tim Berners-Li tomonidan ishlab chiqilgan.

WWW sistemasidan qandaydir hujjat yoki xabar olsangiz, ekranda yaxshi formatlangan, o‘qish uchun qulay matn paydo bo‘lganligini ko‘rasiz. Bu shuni anglatadiki, WWW hujjatlarida ma’lumotlarni ekranda boshqarish imkoniyati ham mavjud. Siz foydalanuvchining qaysi komp`yuterda ishlashini bilmaysiz va WWW hujjatlar aniq bir komp`yuter platformalariga mo‘ljallangan yoki qaysidir format bilan saqlanishini oldindan ayta olmaysiz. Ammo komp`yuterda ishlayotgan foydalanuvchi qaysi terminalda ishlashidan qat’iy nazar yaxshi formatlangan hujjatni olishi kerak bo‘ladi. Bu muammoni HTML andoza tili hal qiladi. U hujjatning tuzilishini ifodalovchi uncha murakkab bo‘limgan buyruqlar majmuidan iborat. HTML gipermatn tilidagi buyruqlar teg (teg)lar deyiladi. Har bir tegning o‘z vazifasi bo‘lib, matn va boshqa ma’lumot turlarini foydalanuvchiga qulay shaklda yetkazish uchun xizmat qiladi. Bu gipermatn tilining ham o‘z versiyalari mavjud, chiqariladigan har bir versiyada HTML gipermatn tiliga yangi teglar qo‘shilib boriladi va shu tariqa rivojlanib boradi.

```

<div class="services" id="services">
    <div class="container">
        <h3 class="tittle-w3l">Bizning xizmatlar</h3>
        <div class="w3l-services-grids">
            <div class="col-md-4 col-sm-4 col-xs-4 w3l-services-grid">
                <div class="w3ls-services-img">
                    <i class="fa fa-users" aria-hidden="true"></i>
                </div>
                <div class="agileits-services-info">
                    <h4>O'qituvchilarga</h4>
                    <p>Ona tili va o'zbek tili (davlat tili)ni o'qitishga oid ilg'or tajribalar, darslar uchun didaktik materiallar, testlar</p>
                </div>
            </div>
            <div class="col-md-4 col-sm-4 col-xs-4 w3l-services-grid">
                <div class="w3ls-services-img">
                    <i class="fa fa-pencil-square-o" aria-hidden="true"></i>
                </div>
                <div class="agileits-services-info">
                    <h4>Talabalarga</h4>
                    <p>O'zbek tilini o'qitish metodikasiga doir ilg'or tajribalar, taqdimotlar, interaktiv mashq va topshiriqlar</p>
                </div>
            </div>
            <div class="col-md-4 col-sm-4 col-xs-4 w3l-services-grid">
                <div class="w3ls-services-img">
                    <i class="fa fa-leanpub" aria-hidden="true"></i>
                </div>
                <div class="agileits-services-info">
                    <h4>O'quvchilarga</h4>
                    <p>Ona tili va o'zbek tili (davlat tili) fanidan interaktiv diktantlar, interaktiv mashqlar, imlo va punktuatsiya qoidalarini o'rganish uchun taqdimotlar</p>
                </div>
            </div>
            <div class="clearfix"> </div>
        </div>
    </div>
</div>

```

## 2.2-расм. HTML коди



2.3-rasm. HTML коднинг броузерда кўриниши.



2.4.-rasm. Sayt muqovasi

Saytda quyidagi foydalanuvchilarga mos materiallar taqdim qilinadi:

**O‘qituvchilarga:** ona tili va o‘zbek tili (davlat tili)ni o‘qitishga oid ilg‘or tajribalar, darslar uchun didaktik materiallar, testlar

**O‘quvchilarga:** ona tili va o‘zbek tili (davlat tili) fanidan interaktiv diktantlar, interaktiv mashqlar, imlo va punktuatsiya qoidalarini o‘rganish uchun taqdimotlar

**Talabalarga:** O‘zbek tilini o‘qitish metodikasiga doir ilg‘or tajribalar, taqdimotlar, interaktiv mashq va topshiriqlar.

Foydalanuvchilar ro‘yxatdan o‘tib, sayt materiallarini o‘rganishlari mumkin. Agar ro‘yxatdan o‘tib diktantlar bajarilsa, kundalik qismida diktant natijalari bo‘yicha baholar ko‘rsatiladi.

## Hoziroq ro‘yxatdan o‘ting!

Foydalanuvchi familiyasi, ismi

Viloyat

Tuman

Foydalanuvchi turi

Login


Parol

**Ro‘yxatdan o‘tish**

### 2.5.-rasm. Ro‘yxatdan o‘tish

Sayt faqat foydalanuvchilar BMKlarini sinovdan o‘tkazishni maqsad qilmaydi. Balki, o‘quvchilarning imloviy bilim, malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun SCORM formatidagi materiallar – iSpring Suit dasturida tayyorlangan taqdimotlar va interaktiv mashqlarga e’tibor qaratiladi. SHuni nazarda tutgan holda o‘zbek tilining imlo va punktuatsiya qoidalar “Darslar” deb nomlanuvchi ruknga joylashtirilib boriladi.

## DARSLAR



### 2.6.-rasm.Darslarga o‘tish

Saytda Sh.Sh.Yuldasheva, M.A.Bekjanova, N.Sh.Yuldasheva, Q.E.Gulmanova, B.E.Ergashev, X.C.Karimovlar muallifligida yaratilgan «**O‘zbek tilidan interaktiv diktant**» dasturi joylashtirildi.

**Dasturning qo’llanish sohasi:** umumta’lim maktablari, o’rta maxsus ta’lim va oliy ta’lim uchun.

“Ona tili”, “O‘zbek tili” fanlaridan o‘quvchilar va talabalarning imlo va punktuatsion savodxonligini avtomatik tekshirib berish, yo‘l qo‘yilgan xatolar miqdorini ko‘rsatish va xato bo‘yicha izoh berish uchun **mo‘ljallangan**.

**Funksional imkoniyatlari:** interaktiv darslar, interaktiv mashqlar, interaktiv diktantlar ko‘rinishdagi nazorat turlaridan iborat.

**EHM toifasi:** Pentium IV kompyuteri va undan yuqorilar.

**Operatsion tizim:** Windows XP va undan yuqori

**Dasturlash tili:** PHP, JavaScript, SQL

**Dastur hajmi:** 171 MB

Loyihaga ko‘ra, saytda lug‘at diktanti, saylanma diktant, ko‘rsatish diktanti, yoddan yozuv diktanti, ta’kidiy diktant, ijodiy diktant, eshitish diktanti, izohli diktant, tekshiruv diktanti kabi diktant turlarini joylashtirish ko‘zda tutilgan bo‘lib, hozirgi kunda asosan tekshiruv diktantlari foydalanishga tayyor va bu diktant turi bo‘yicha 1000 ga yaqin foydalanuvchilar o‘z savodxonligini sinovdan o‘tkazishmoqda.

Interaktiv diktantlarni tayyorlashda matnlar ona tili o‘qitish metodikasida va DTSlarida belgilangan hajm e’tiborga olinmoqda.

Interaktiv diktantlar quyidagicha tayyorlanadi. O‘qituvchi o‘quvchilar bilimidagi bo‘shliqlarni e’tiborga olgan holda imlo va punktuatsion xatolarni e’tiborga olib, matndagi bo‘sh o‘ringa ikki yoki undan ortiq variant taklif qilingan interaktiv diktant matnini va uning audiofaylini tayyorlaydi.

Sayt administratori “Diktant yaratish” ruknini boshqaradi. Ma’lumotni kiritishda diktant turi, mavzusi, sinf tanlanadi.

Diktant turlari	Lug'at diktanti
Mavzu	Tinchlik
Sinf	5-sinf
Matni	

## 2.7.-rasm. Ma'lumot yaratsih

Har bir diktantga topshiriq qo'yilgan va diktantni bajarish uchun ko'rsatma taqdim qilingan:

*Matnni diqqat bilan tinglang va o'qing. Variantlardan birini tanlab tushirilgan harf va tinish belgilarni qo'ying. Agar harf yoki tinish belgini qo'yish shart emas deb hisoblasangiz, bo'sh katakni tanlang.*

*Bajarilgan topshiriq natijasini bilish uchun "Tamomlash" tugmasini cherting.*

Administrator diktant matnida o'quvchilar yuboradigan imlo va punktuatsion xatolarni e'tiborga olib matndagi bo'sh o'ringa ikki yoki undan ortiq variant berishi zarur.

Matni	 										
Ballar va izohlar	<table border="1"> <thead> <tr> <th>Variantlar</th> <th>To'g'ri javob</th> <th>To'g'ri javob uchun beriladigan ball</th> <th>Noto'g'ri javob uchun beriladigan izoh</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td></td> <td></td> <td></td> <td></td> </tr> </tbody> </table>			Variantlar	To'g'ri javob	To'g'ri javob uchun beriladigan ball	Noto'g'ri javob uchun beriladigan izoh				
Variantlar	To'g'ri javob	To'g'ri javob uchun beriladigan ball	Noto'g'ri javob uchun beriladigan izoh								
Audio											
Izoh											

**Yaratish**

## 2.8.-rasm. Diktantni avtomat baholash

“Tabiat qo‘ynida” mavzusidagi tekshiruv diktanti uchun tekshiriladigan BKMLarga mos harf yoki tinish belgi oldindan aniqlanadi va Word muharririda to‘g‘ri va notog‘ri javob qavs yoki boshqa xil rang bilan ajratiladi:

## TABIAT QO‘YNIDA

Riza tepalikk(g)a chiqib(p) borganda()(), bir tekis ochilgan bi()nafsha,() h(x)ar xil o‘t-()o‘lanlar() purvi(u)qor archalar quyosh nuriga bearmo(a)n cho‘milmoqd(t)a edi. Ertalabk(g)i ovga chiqqan bir tulki(), bu yerda bex(h)osdan paydo bo‘lib(p) qolgan odamdan cho‘chib(p) o‘zini darax()zor ichiga urdi. Mana(),() ochiq joy tugab(p),() archazor boshlandi. Riza archazorga sho‘n(ng)g‘ib(),() narigi betidan chiqd(t)i. Ikki h(x)atlab(p) qiyalikd(t)a turgan(), kattakon xarsangga yetd(t)i. X(h)arsang(n) silliq edi. Riza x(h)arsang(n) ustiga o‘tirib(),() atrofni to(a)mosha qila boshladi. Uning oldiginasidan boshlanuvchi jilg‘a(),() kengaya(),()kengaya Oqsoqota soyiga borib(p) tutashadi. H(x)u ana(),() tubanda shamolda h(x)ilpirab(p) turgan oq lentaday Oqsoqota soyi oqmoqd(t)a.

X(h)arsang(n)ning tagidan tip(),()tiniq buloq(a)q viqir-viqir qaynab(p) chiqmoqd(t)a. Buloq(a)q tubidagi oq(),() qizil(),() ko‘k(),() turli(),()tuman mayda toshlarning rang(gg)i suvga urib(),() jimir(),()jimir to(a)vtovanadi.

(105 so‘z)

Diktant matnidan so‘ng, albatta, muallif va diktant olingan manba ko‘rsatilishi zarur.

### Tabiat qo‘ynida

Matnni diqqat bilan tinglang va o‘qing. Variantlardan birini tanlab tushirilgan harf va tinish belgilarni qo‘ying. Agar harf yoki tinish belgini qo‘yish shart emas deb hisoblasangiz, bo‘sh kataknini tanlang. Bajarilgan topshiriq natijasini bilish uchun “Talomlash” tugmasini cherting.

Riza tepalik **k**a chiqib **p** borganda, bir tekis ochilgan binafsha, **h**ar xil o‘t- **o‘lanlar** **p**urviqor archalar quyosh nuriga bearmon **cho‘milmoqd**(t)a edi. Ertalab **i** ovga chiqqan bir tulki **b**u yerda **b**osdan paydo **bo‘li** **b**adamdan **cho‘chib** **o‘zini** **darax**zor ichiga urdi. Mana **,()** ochiq joy **tugab**, archazor boshlandi. Riza archazorga **x** **h**, narigi betidan chiq*d*(t)i. Ikki **x**atlab **p** qiyalik **a** turgan kattakon xarsangga yet*d*(t)i. **X**arsang silliq edi. Riza **X**arsang ustiga o‘tirib **b**atrofni tomosha qila boshladi. Uning oldiginasidan boshlanuvchi jilg‘a, kengaya **q**engaya Oqsoqota soyiga borib **b**utashadi. Hu ana, tubanda shamolda **h**ilpirab **b**turgan oq lentaday Oqsoqota soyi oqmoqd(t)a.

**X**arsangning tagidan tip **t**iniq buloq **v**iqir **v**iqir **q**aynab **p** chiqmoqd(t)a. Buloq tubidagi oq **q**izil **ko‘k** **t**urli **t**uman mayda toshlarning rangi suvga urib, **j**imir **j**imir tovlandi.

(105 so‘z)

Muallif: Yuldasheva Shahlo Shukurlayevna

Manba: Ziyodullayeva G., Mamadiyeva M. Diktantlar to‘plami: o‘qituvchilar uchun qo‘llanma. – Toshkent: Tafakkur, 2012. – 144 b.

**Talomlash** **Qayta boshlash**

## 2.9.-rasm. Diktant yaratish

Interaktiv diktant muayyan vaqt davomida bajariladi.

Matnni diqqat bilan tinglang va o'qing. Variantlardan birini tanlab tushirilgan harf va tinish belgilarni qo'ying. Agar harf yoki tinish belgini qo'yish shart emas masangiz, bo'sh kataknini tanlang. Bajarilgan topshiriq natijasini bilish uchun "Tamomlash" tugmasini cherting.

Biz tin chlik istaym z. sunyo xari ham tin ch yashashni xo laydilar

(9 so'z)

Muallif: Yuldasheva Shahlo Shukurlayevna

Manba: Abdullayeva Q., Rahmonbekova S. Diktantlar to'plami: boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun (qayta ishlangan ikkinchi nashri). – Toshkent: Vektor-press, 2011. – 192 b.

## 2.10.-rasm. Diktant uchun ajratilgan vaqt

To'g'ri javob uchun ball belgilanadi. Foydalanuvchi o'z natijasini bilgach, diktantni qayta topshirishi yoki ishni tugallashi mumkin.

Ball: 2 To'g'ri javoblar foizi: 15.15%

## 2.11.-rasm. Diktant natijasi

Interaktiv diktantning muhim jihatni shundaki, diktant natijasi ko'rsatilganda noto'g'ri javob uchun izoh keltiriladi. Bu holat foydalanuvchiga o'z xatosi bo'yicha yo'nalish berish, xatosini anglash va uni bartaraf etish uchun imkoniyatdir.

Sayt administratori foydalanuvchilarning natijalarini monitoring qilish imkoniyatiga ega.

	Boltaboyeva Inobat	Qorbobo	Xorazm viloyati, Gurlan tumani,	2018-02-22 17:50:12
	Mahmudova Gulnoza	Tinchlik	Xorazm viloyati, Gurlan tumani,	2018-02-22 17:50:41
	Mahmudova Gulnoza	Xotira daftari	Xorazm viloyati, Gurlan tumani,	2018-02-22 17:52:03
	Adilova Shahnoza	Qorbobo	Xorazm viloyati, Gurlan tumani,	2018-02-22 17:52:05

## 2.12.-rasm. Foydalanuvchilar monitoringi Interaktiv diktantlar 5 ballik tizimda baholanadi.

Foydalanuvchi diktantdagi bo'sh o'rirlarga mos harf yoki belgini qo'yib, "Tamomlash" tugmasini chertsa, natijasini ko'ra oladi. Shuningdek, noto'g'ri javoblar uchun izoh ko'rsatiladi va foydalanuvchi qaysi qoida bilan bog'liq xatoga yo'l qo'yanligini bilib oladi. Imloviy bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash, o'quvchiga o'z xatolarini bartaraf qilishga ko'maklashish imkoniyati mavjudligi esa dasturning ahamiyatini yanada oshiradi.

Foydalanuvchi saytda ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, unga kundalik ajratiladi. Bu orqali foydalanuvchi o'zining imlo savodxonligidagi o'sishlarni kuzatib boradi.

Sayt administratori ham foydalanuvchilarning natijalarini monitoring qilish imkoniyatiga ega. Interaktiv diktant loyihasining aralash ta'limni amalga oshirishdagi imkoniyatlari katta:

o'quvchi o'qituvchi rahbarligida yoki mustaqil ravishda diktantlarni bajaradi, tizim foydalanuvchining imlo va punktuatsion savodxonligini avtomatik ravishda tekshiradi: yo'l qo'yilgan xatolar miqdorini ko'rsatib beradi. Xatolar bo'yicha beriladigan izohlar esa foydalanuvchini an'anaviy diktantlarni talab darajasida yozishga tayyorlaydi, bu esa o'z navbatida nazorat ishlarida xatolarning kamayib borishi va tekshirishlar uchun o'qituvchi vaqtini va kuch-quvvatini tejash omili bo'la oladi.

Onlayn rejimda o‘zbek tilidan savodxonlikni tekshirish imkoniyatini beruvchi xizmat turining yaratilganligi o‘qitish jarayonini axborotlashtirish, raqamli texnologiyalarni tatbiq qilishga oid islohotlar amalga oshirilayotgan davrda muhim ahamiyat kasb etadi. Interaktiv diktantlar o‘zbek tili imlosi va punktuatsiyasini kam kuch va vaqt sarflab oson o‘rgatish, o‘quvchilarning yozma savodxonligini oshirish uchun fan o‘qituvchilariga tavsiya qilinmoqda. Mualliflar tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tarmoq markazida, Nukus shahridagi ta’lim muassasalarida seminarlar tashkil qilinib, dasturdan kompyuter va boshqa aloqa vositalari (mobil telefonlar, planshetlar) yordamida foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar, yo‘l-yo‘riqlar berilmoqda. Fan o‘qituvchilarida, o‘quvchilarda zamonaviy axborot texnologiyalari, gadgetlar yordamida har qanday qulay joyda va qulay vaqtda ta’lim olish imkonini beradigan elektron ta’lim vositalarini yaratishbo‘yicha dastlabki tajribalar yaxshi natijalar ko‘rsatmoqda.

Interaktiv diktant turli ta’lim muassasalarida foydalanilishi, hatto katta yoshdagи qiziquvchilar ham o‘z savodxonliklarini tekshirib, imlo va punktuatsion bilim, malaka, ko‘nikmalarini orttirishlari mumkin.

Loyiha masofali ta’lim jarayonida ona tili o‘qituvchisining yangi vazifasi, ya’ni tyutor-instruktor sifatida foydalanuvchilar bilan munosabat o‘rnatish, masofadan turib ta’lim oluvchilarning faoliyatini boshqarish, o‘quv materiallarini tayyorlash, o‘quv kursini boyitib borish bo‘yicha ham muhim ahamiyat kasb etadi. Fan o‘qituvchilarining sayt materiallaridan foydalangan holda darslarni tashkil qilishlari esa tyutor-fasilitator sifatida o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olishiga ko‘maklashishi sari qo‘yilgan qadam bo‘ladi.

## **UCHINCHI BOB. “INTERAKTIV DIKTANT” DASTURIDAN FOYDALANISH MASOFALI TA’LIM SARI QADAM SIFATIDA**

### **3.1. Masofali va aralash ta’limni tashkil qilish interaktiv diktantlar imkoniyatlari**

Masofaviy o‘qitish, masofaviy o‘qish va masofaviy ta’lim tushunchalari uchun umumiy bo‘lgan masofa so‘zining lug‘aviy ma’nosи, mohiyati bizga yaxshi tanish. Biroq bu so‘zning o‘qitish, o‘qish, ta’lim so‘zlari bilan birikib kelganida esa tashqi o‘xshashlik tufayli aksariyat hollarda so‘z birikmalarini sinonim sifatida qo‘llaymiz. Ular aslida bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lgan va o‘z navbatida bir-biridan farqlanadigan tushunchalardir. Masofaviy o‘qitish – bu ta’lim shakli, masofaviy o‘qish – bu ta’lim tizimi, masofaviy ta’lim – ta’lim kompleksi, ya’ni majmuasi. Bu tushunchalarning tarixi o‘ziga xos bo‘lib, mutaxassislar insoniyat axborot almashinishni boshlagan ilk taraqqiyot davridayoq odamlarda masofadan o‘qitish, masofadan o‘qishni tashkil etish ehtiyoji mavjud bo‘lganligini ta’kidlaydilar<sup>23</sup>.

1840-yilda Isaak Pitman Buyuk Britaniyada talabalarga pochta orqali stenografiyalarni o‘qitishga kirishadi va uni masofaviy o‘qitishning asoschisi deb hisoblashadi.

XIX asrning 50-yillarida Germaniyada Gustav Langenshaydt o‘zining “ta’limiy maktublarini” katta yoshdagilarga tilni o‘rganish uchun qo‘llanma sifatida nashr ettiradi.

XIX asrning 70-yillarida Qo‘shma Shtatlarda masofaviy o‘qitishni tashkil qilish uchun bir qator qadamlar qo‘yiladi. 1873 yilda Anna Eliot Tiknor “Tiknor jamiyati” nomi ostida ayollar uchun “Uy ta’limini qo‘llab-quvvatlash jamiyati” deb nomlangan ingliz dasturi asosida pochta orqali ta’lim tizimini yaratadi. 1874

---

<sup>23</sup> Карап: масофали таълим эволюцияси бўйича маълумотларни келтиришда қуйидаги манбадан фойдаланилди: Дистанционное обучение: состояние и перспективы развития дистанционного обучения в Республике Казахстан. [https://studexpo.ru/84101/pedagogika/distsantsionnoe\\_obuchenie\\_sostoyanie\\_i\\_perspektivy\\_razvitiya\\_distsantsionnogo\\_obucheniya\\_v\\_respublike\\_kazakhstan](https://studexpo.ru/84101/pedagogika/distsantsionnoe_obuchenie_sostoyanie_i_perspektivy_razvitiya_distsantsionnogo_obucheniya_v_respublike_kazakhstan)

yilda Illinoys shtati universiteti ham pochta orqali ta’lim olish dasturini taklif qiladi.

Pensil`vaniyadagi “Colliery Engineer” kundalik gazetasi tog‘-kon ishlanmalari texnikasini takomillashtirish va konlarda baxtsiz hodisalarining oldini olish bo‘yicha o‘quv materiallarini chop etishni boshlaydi. Bu publikatsiyalar shunchalik ommalashadiki, 1891- yilda bu bo‘yicha maxsus kurs yaratiladi va u kelajakda pochta orqali turli fanlarni o‘qitish dasturlari uchun andaza vazifasini bajaradi.

1892- yili Qo‘shma Shtatlarda “pochta orqali o‘rganishning otasi” deb hisoblangan Vil`yam Reyni Xarper Chikago universitetida birinchi masofaviy ta’lim bo‘limini tashkil etadi. 1906- yilda pochta orqali ta’lim Viskonsin shtatining universitetida joriy etiladi.

Masofaviy o‘qitish texnologiyasi elementlari Rossiyada Naxodkada (1907) va A.M.Shanyavskiy nomidagi Moskva xalq universitetining Nautika mакtabida uchraydi. (1908). Keyinchalik Avstraliyada masofaviy o‘qitish paydo bo‘ladi. 1911- yili masofaviy kurslar Kvinslend universitetida boshlanadi. 1914- yilda oddiy maktablardan uzoq yashagan boshlang‘ich mакtab o‘quvchilari uchun pochta orqali ta’lim berish yo‘lga qo‘yiladi. Mel`burndagi pedagogika kolleji talabalari pochta orqali o‘z darslarini o‘tkazadilar. Ushbu amaliyot tezda umumta’lim maktablari va kollejlarga tarqaladi. Bunday ta’lim Kanada va Yangi Zelandiyada ham qo‘llanila boshlaydi. 1938- yilda Viktoriyada (Britaniya Kolumbiyasi, Kanadada) pochta orqali ta’lim olish bo‘yicha Xalqaro kengashning birinchi s’ezdi o‘tkaziladi.

1917- yildan beri masofaviy o‘qitish Rossiyada keng rivojlangan deyish mumkin. Sobiq Sovet Ittifoqida masofaviy o‘qitishning maxsus, konsul`tativ modeli ishlab chiqiladi (sirtqi ta’lim).

XX asrning 60-yillariga kelib, sobiq SSSRda 11 ta sirtqi ta’lim universitetlari va ko‘pgina oliy o‘quv yurtlari tarkibida sirtqi ta’lim fakul`tetlari mavjud edi. Ikkinchi jahon urushidan keyin sobiq SSSRning bu tajribasi Markaziy va Sharqiy Yevropaning ayrim davlatlariga yoyiladi.

1939- yilda Frantsiyada maktabda ta’lim olish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan bolalarga pochta orqali ta’lim berish uchun CNED davlat masofali ta’lim markazi tashkil etiladi. Hozirgi vaqtida mazkur markaz Yevropada masofaviy o‘qitishning eng yirik ta’lim muassasasiga aylangan.

Masofadan o‘qituvchi tashkilotlar ko‘pgina mamlakatlarda, asosan Yevropada va Osiyoda paydo bo‘lgan. Ular orasida Ispaniya (1972), Pokiston (1974), Tailand (1978), Koreya (1982), Indoneziya (1984), Hindiston (1985), Niderlandiya (1985) universitetlarini sanab o‘tish mumkin.

Xitoyda 1979- yilda Madaniy inqilob davrida yopilgan an’anaviy madaniyat muassasalari o‘rnida radio va televizion universitetlarning milliy tarmog‘i tashkil etilib, viloyatlar uchun sun’iy yo‘ldosh eshittirishlari va televidenie universitetlari yordamida o‘quv mashg‘uloti olib borilgan.

Pochta va masofaviy o‘qitish tarixini ko‘rib chiqish ta’limning bunday shaklining bir qator barqaror xususiyatlarining mavjudligini yaqqol ko‘rsatadi:

- masofaviy o‘qitish oliy ta’limdan boshlang‘ich ta’limgacha qamrab olingan;
- turli yoshdagি kishilarga mo‘ljallangan: kichik yoshdagи bolalardan to yoshi ancha ulug‘ shaxslargacha;
- o‘qitiladigan fanlarning miqqosi ancha keng: stenografiya yoki konchilik ishidan tortib to umumiy ta’limgacha;
- ta’lim usullari unchalik xilma-xil emas: yozishmalar, bosma nashrlardan foydalanish, radio va televidenie, amaliy seminarlar va ochiq imtihon kabilar;
- masofaviy o‘qitish tizimi rivojlangan mamlakatlarda ham, rivojlanayotgan mamlakatlarda ham, katta va kichik davlatlarda ham tashkil etilgan.

Amerikaliklar va britaniyaliklarning masofaviy o‘qitish haqidagi qarashlarida har xillik mavjudligini ko‘rish mumkin. Amerikaliklar masofali ta’lim deganda birinchi so‘zga (telekommunikatsiya texnologiyalari orqali masofani bartaraf etish) ko‘proq urg‘u berishsa, britaniyaliklar texnologik emas, balki ta’limiy jihatlarga e’tibor berishadi. Bizningcha, masofaviy ta’limning ildizlari, pochta orqali o‘qitish mamlakatimiz tarixida (bilamizki, choparlar, kabutarlar

pochta vazifasini bajargan) mavjud bo‘lganligini taxmin qilish mumkin. Jumladan, Sohibqiron Amir Temur Tarag‘ay Bahodirning markazlashgan davlati o‘z tarkibiga yigirma yetti mamlakatni, jumladan, Xuroson, Hindiston, Eron, Ajam Iroqi, Fors Iroqi, Turkiya, Ozorbayjon, Gurjiston, Sobiq Oltin O‘rda (Dashti Qipchoq, Qrim) va boshqa mamlakatlarni birlashtirgan. Bu o‘lkalarga Amir Temurning xabarlarini, ko‘rsatma va buyruqlarini choparlar, kabutarlar yetkazgan. Davlat boshqaruvi bo‘yicha ko‘rsatmalarini Amir Temur “Temur tuzuklari” deb kitob sifatida jamlagan. Amir Temur yuborgan nomalar va unga jo‘natilgan diplomatik maktublar shuni ko‘rsatadiki, sohibqiron chet davlatlar bilan munosabatlar o‘rnatishda diplomatik tamoyillarga tayanib ish yuritgan<sup>24</sup>.

Alisher Navoiyning maktublar to‘plami “Munshaot” asarida jami 88 ta xat keltiriladi. Ular sog‘inch xatlari, navro‘z tabriklari, ta’ziyanomalardan tashqari siyosiy o‘gitlar, sulhnomalar va yana boshqa mavzularga oid bo‘lib, Husayn Boyqaro, Badiuzzamon va boshqa tarixiy shaxslarga bitilgan<sup>25</sup>. Badiuzzamon mirzo, uning o‘g‘li Mo‘min mirzoga yo‘llagan maktublarida she’r ilmiga oid ko‘rsatmalarini bergen. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining o‘g‘li Humoyunga yozgan maktubida arab alifbosini qo‘llab xat bitish (imlo) ga doir ko‘rsatmalarini bergen. Bobur imlo masalalariga, ayniqsa, arabcha so‘zlar imlosiga alohida e’tibor bergani ma’lum. Uning so‘z imlosiga munosabati o‘g‘li Humoyunga yozgan maktubida namoyon bo‘ladi. Unda Bobur muallif ismi imlosi va ma’nosiga e’tiborli bo‘lish, ota-onaning o‘z farzandiga muvofiq ism berish farzi haqida, imlo masalalari, husnixat va uning ahamiyati, til va tafakkur bog‘liqligiga to‘xtaladi. U o‘g‘lining xatiga oid tanbehlar berib, xatosiz yozishga undaydi: “bundan nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila biti. Ham sanga tashvish ozroq bo‘lur ham o‘quq‘uchig‘a”<sup>26</sup>. Bularidan ko‘rinadiki, Konfutsiy: “Men bilimdon bo‘lib yaralgan emasman, shu bois bilimni o‘tmishdan olishga jiddu jahd qildim”, deb yozganidek, masofali o‘qitish, masofali ta’lim tushunchasi ham bizning davrimizda o‘z-o‘zidan

<sup>24</sup> Абдуллаева Д. Амир Темур мактублари. <http://e-adabiyot.uz>

<sup>25</sup> Навоий ҳақида биз билмаган 25 факт. <http://www.Betakrorbuxoro.uz>

<sup>26</sup> Қосимова Н. Захириддин Муҳаммад Бобур – янги ёзув кашфиётчиси. <http://www.trift.uz>

vujudga kelib qolmagan, balki muayyan evojutsion bosqichlarga ega, bu tizimning yaralishida ajdodlarimizningam muayyan hissasi bor deb hisoblash mumkin.

Xullas, biz interaktiv diktantlar o‘tkazish jarayonini masofaviy ta’lim, ya’ni ta’lim kompleksi, majmuasi tushunchasi bilan bog‘laymiz. Yuqoridagi boblarda ta’kidlanganidek, savod.uz saytida interaktiv diktantlardan boshlangan masofali ta’lim kelajakda majmuaviy ko‘rinishda o‘zbek tilidan **o‘qituvchilarga** (ona tili va o‘zbek tili (davlat tili)ni o‘qitishga oid ilg‘or tajribalar, darslar uchun didaktik materiallar, testlar), **o‘quvchilarga** (ona tili va o‘zbek tili (davlat tili) fanidan interaktiv diktantlar, interaktiv mashqlar, imlo va punktuatsiya qoidalarini o‘rganish uchun taqdimotlar), **talabalarga** (o‘zbek tilini o‘qitish metodikasiga doir ilg‘or tajribalar, ilmiy maqolalar, taqdimotlar, interaktiv mashq va topshiriqlar) xizmat ko‘rsatish uchun takomillashtirilishi rejalashtirilmoqda. Rejalarimizdan o‘zbek tilidan on-layn mакtab yaratish ham o‘rin olgan.

Biz interaktiv diktant dasturini foydalanishda aralash ta’limni amalga oshirish bo‘yicha ham dastlabki kichik tajribalarimizni amalga oshirishga harakat qildik.

Xorij ta’lim tizimida edtech (ta’lim texnologiyalari), e-learning (e-ta’lim), blended-learning (aralash ta’lim) atamalari paydo bo‘lganligiga ancha bo‘ldi. Bizda esa Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta’kidlanganidek, mamlakatimizda “bolalar va yoshlarga maxsus fanlar, mamlakatimiz va jahon sivilizatsiyasi tarixini, xorijiy tillarni va zamonaviy komp`yuter dasturlarini chuqr o‘rgatish vazifalari hali sifatli va to‘liq holda yechilgani yo‘q”.

Bu esa ta’lim shakllarini takomillashtirishni taqozo qiladi.

Ma’lumki, ta’lim shakllari (lotincha forma – tashqi ko‘rinish) – bu usul o‘quv jarayonini mavjudligi, uning ichki mohiyati, mantiqi va mazmuni uchun qobiq. Ta’limning quyidagi asosiy shakllari mavjud: an’anaviy o‘qitish – yuzma-yuz – litsom k litsu, face to face learning; masofaviy o‘qitish – distantsionnoe obrazovanie, distance learning; ochiq o‘quv kurslari – otkritoe obuchenie, Open learning; moslashuvchan o‘qitish – gibkoe obuchenie, Flexible learning; aralash

o‘qitish (ta’lim) – smeshannoe obuchenie, Blended learning; elektron o‘qitish (ta’lim) – elektronnoe obuchenie, E-learning.

Biz o‘z faoliyatimizda an’anaviy ta’limning masofaviy ta’lim bilan kombinatsiyalangan turi, ya’ni aralash ta’limning samarasini ko‘rmoqdamiz. Elektron ta’limda ham pedagogika va metodikada, ta’lim texnologiyalarida bo‘lgani kabi eng samarali metodlarni aniqlash zarur.

«Metod» so‘zi ilmiy yondashuvni nazarda tutadi, biroq bu atama mohiyati, mutaxassislar fikricha, elektron ta’lim sohasi uchun boshqacha tarzda izohlanishi taqozo qilinadi. Bu yosh soha bo‘lganligi uchun emas, balki u doimo evolyutsiyada va tezlik bilan yangi shakllarning paydo bo‘lishiga uzviy bog‘lanadi. Shuning uchun, e-ta’limdagi yondashuvlarni tasvirlash uchun odatiy so‘zlarni “tur”, “turlar” yoki san’at sohasidan mos keladigan so‘z – “janr” so‘zidan foydalanish ma’qul ko‘riladi.

Axborotni idrok qilishga ko‘ra elektron ta’lim metodlari tasniflanadi. E-ta’limning matnli, video, o‘yinlar va simulyatsiyalar, audiokurlar kabi janrlari mavjud.

Elektron ta’limda metod tanlash fanning o‘ziga xosligiga tayanishni taqozo qiladi. O‘quv kursining sifatsiz tayyorlanishi ta’lim oluvchida yomon taassurot paydo qiladi. Shuning uchun videokurs, mul`timediali taqdimotlar, audokurslarni yaratish – ishlab chiqishdagi talablarni bilib olish taqozo qilinadi. Bular innovatsiya sifatida kirib kelayotgan ta’lim texnologiyalari va modellarining uzviy elementlari bo‘lib qolmoqda.

Deklan Bern "blended learning" (aralash ta’lim) haqida shunday deydi: “Ushbu ta’lim boy pedagogik tajribadan samarali foydalanishga qaratilgan”.

Bu tizimda o‘qituvchi ta’lim markazida qoladi va internet imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanadi. Blended learning masofaviy ta’lim (Distance learning), sinf xonada ta’lim (Face-to-Face learning) va internet orqali ta’lim (Onlin learning)dan iborat. Aralash ta’limning bir modeli “Teskari sinf” (Flipped Class) sanaladi.

Teskari sinf (dars) – o‘qituvchi tomonidan o‘qituvchiga uyda mustaqil o‘rganishi uchun materiallar taqdim etadigan va darsda uni amaliy mustahkamlash nazarda tutiladigan ta’lim modeli. Teskari ta’lim uchun vodkast (Vodcast), podkastlar (Podcast) va pre-vodkasting (Pre-Vodcasting) foydalanish bilan tavsiflanadi.

Bu metodga ko‘ra sinf ishi murakkab nazariy qismni tahlil qilish va o‘quvchilarning uy vazifasini bajarish jarayonidagi (25-30% dan ko‘p bo‘lmagan) savollariga javob berishga bag‘ishlanadi. Shuningdek, sinfda o‘qituvchi nazorati ostida talabalar amaliy muammolarni hal qilishadi va tadqiqot vazifalarini bajaradilar. Sinfdagи mashg‘ulotdan so‘ng o‘quvchilar uyda amaliy ishlarni tugatishadi, o‘rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun test sinovlarini bajarishadi.

Teskari sinf modeli darsda o‘qituvchi ustunligidan talabaning ustuvorligiga o‘tishdir. Teskari sinf metodining asoschilari – ikki nafar o‘qituvchi – Jonatan Bergman va Aaron Samslar bo‘lib, birinchi marta 2007 yilda mashg‘ulotlarni o‘tkazib yuboradigan, vaqtida qatnasha olmaydigan sportchilarga o‘z ma’ruzalarini taqdim etishgan.

Biz amalga tatbiq qilayotgan “Teskari sinf” modelining asosiy printsiplari quyidagilardan iborat: aniq nazariy ma’lumotlarga asoslanish; ta’lim oluvchilar va ta’lim beruvchi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik; ta’limning shaffofligi.

“Teskari sinf” modelini tatbiq etish bosqichlari:

1. O‘rganilishi nazarda tutilgan mavzuga mos ma’ruzani ixcham tarzda tayyorlash, amaliy o‘rganish uchun interaktiv mashq va topshiriqlar yaratish va bosmadan chiqarish.

2. Ma’ruzalarni mul`timedialashtirish orqali taqdim qilish (matn, ovoz, jonli harakat, grafik tasvir: jadvallar, algoritmlar) – o‘qituvchining mavzuni batafsil tushuntirishiga o‘rin qolmaydi.

3. Til ta’limiga oid cheklanmagan elektron manbalarni yaratish va ta’lim oluvchilarga taqdim qilish, jumladan:

- a) o‘quv materiallari bosqichma-bosqich, mashq va topshiriqlar ketma-ketlikda taqdim qilinadigan o‘rgatuvchi dasturlar;
- b) imlo va punktuatsiya qoidalarini mustahkamlashga yordam beruvchi elektron repetitorlar;
- v) sintaksis va punktuatsiya bo‘yicha qoidalar jamlangan o‘rgatuvchi dasturlar;
- g) o‘zbek tili imlo qoidalarining katalogi va qisqacha elektron imlo qoidalarining katalogi va qisqacha elektron imlo lug‘ati, o‘zbek tilining elektron izohli lug‘ati va boshqa xil elektron o‘quv lug‘atlari;
- d) umumta’lim maktablari va talabalar uchun mo‘ljallangan o‘zbek tilidan “Interaktiv diktant”; ye) test dasturlari; yo) o‘zbek tilidan elektron jadvallar;
- j) o‘rgatuvchi audiodasturlar.

4. Taqdim qilingan materiallarni o‘rganish uchun ko‘rsatma berish.

5. Taqdim qilingan materiallarning talaba, o‘quvchi tomonidan mustaqil o‘rganilishi.

6. Dars jadvaliga asosan belgilangan mashg‘ulotda talaba va o‘quvchilarning darslik va o‘quv qo‘llanmalar, badiiy va ilmiy adabiyotlar ustida hamkorlikdagi ishini tashkil qilish;

7. O‘quv loyihalari va keys-topshiriqlarini bajarish;

8. O‘rganilgan mavzular bo‘yicha nazorat ishlarini tashkil qilish va baholash.

Mazkur modelni amalga oshirish davomida: o‘quvchilarga o‘z fikrlarini bildirish uchun imkoniyat berish, ta’lim oluvchilarda o‘ziga ishonch va fanga motivatsiya uyg‘otish, o‘zlashtirishi past bo‘lgan ta’lim oluvchilarga boshqa iqtidorli ta’lim oluvchilarning yordamini tashkil qilish, “suflyor” rolini tabiiy deb qabul qilish, ta’lim oluvchilarning past baholarini yuqorilatishga imkon berish ko‘zda tutiladi.

Xullas, biz taklif qilayotgan interaktiv diktantlar turli ta’lim muassasalarida foydalaniishi mumkin, hatto katta yoshdagи qiziquvchilar ham o‘z savodxonliklarini tekshirib ko‘rishlari mumkin. Shuningdek, o‘quvchilar dars

jarayonida saytda joylashtirilgan interaktiv diktantlarni fan o‘qituvchilarini rahbarligida bajarishlari mumkin. Bunda aralash ta’lim amalga oshiriladi, ya’ni o‘qitishning masofali va an’anaviy shakli birgalikda qo‘llaniladi. Kam vaqt va kuch sarflab o‘quvchilarning yozma savodxonligini oshirish imkoniyati vujudga keladi. Saytda o‘quvchilarning imloviy bilim, malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun SCORM formatidagi materiallar – iSpring Suit dasturida tayyorlangan taqdimotlar va interaktiv mashqlar joylashtirib boriladi. Loyiha masofali ta’lim jarayonida ona tili o‘qituvchisining yangi vazifasi, ya’ni tyutor-instruktor sifatida foydalanuvchilar bilan munosabat o‘rnatish, masofadan turib ta’lim oluvchilarning faoliyatini boshqarish, o‘quv materiallarini tayyorlash, o‘quv kursini boyitib borish bo‘yicha ham muhim ahamiyat kasb etadi. Fan o‘qituvchilarining sayt materiallaridan foydalangan holda darslarni tashkil qilishlari esa tyutor-fasilitator sifatida o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olishiga ko‘maklashishi sari qo‘yilgan qadam bo‘ladi.

### **3.2. “Interaktiv diktant” dasturidan foyalanish: muhokama va tavsiyalar**

Hayotimizni axborotlarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Axborotlar oqimi hayotimizga uyda, ishxona va hatto ta’tilda ham ta’sir qiladi. Aslida hayotni anglash, uni o‘rganish axborotlarni yig‘ish va o‘zlashtirish orqali kechadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida:

“Har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o‘zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega” ekanligi qayd qilingan. 42-moddada esa: “Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qiladi”, – deb ko‘rsatilgan<sup>27</sup>.

---

<sup>27</sup> Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 34 б.

Bo‘lajak mutaxassisning kasbiy layoqati va mahorati hozirgi davrda o‘z kasbi doirasida qo‘llanadigan soha terminlarini, davlat tilida ish yuritish malakasini, nutq madaniyati asoslari hamda notiqlik me’yorlarini ham bilishni taqozo etmoqda. Shu bilan birga o‘zbek tili o‘qituvchisining maqomi ham tubdan o‘zgarmoqda. Endilikda u yagona axborot manbasi va o‘z mashg‘ulotining oliy hakami vazifasini bajara olishi mumkin emas. Hozirda uning vazifalari ta’lim oluvchilarning mustaqil bilimlarini tashkil qilish va qo‘llab-quvvatlash, ular bilan muloqot qilish, shuningdek, talabalarning jamoaviy loyihamizga ishlarini olib borish bilan bog‘lanmoqda. Ikkinchidan, o‘zbek tili o‘qituvchisi pedagogik dizayn mahoratini va yetarlicha kompyuter savodxonligini egallashi talab qilinmoqda.

Zamonaviy AKT muhitida o‘qitishni internet resurslaridan foydalanishsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Internet tarmog‘i ta’lim xizmatlarining juda katta potentsialiga ega. Elektron pochta, virtual kutubxona va muzeylar, ta’limiy portal va saytlar, mavzuli blog va forumlar, telekonferentsiyalar, elektron olimpiadalar va viktorinalar, zamonaviy ta’limning tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ushbu ta’lim xizmatlaridan ham darsda, ham darsdan tashqari faoliyatda foydalanish o‘qituvchini ta’lim jarayonining menedjeriga aylanishga undaydi.

Olib borilgan tadqiqotdqa bosh maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, shuningdek, o‘qituvchilarni innovatsion jarayonga qiziqishini otrrirish yo‘nalishida Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi shahar va tuman maktablari fan o‘qituvchilari va o‘quvchilar loyihamizga jalgan qilindi. Loyiha doirasida qatnshchilar innovatsion raqamli texnologiyalardan interaktiv diktantlarning samaradorligini baholab, dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda va masofali ta’lim uchun qulayliklari bo‘yicha munosabatlarini bildirib borishdi.

Ishtirokchilar bilan quyidagi boshqichlarda tadbirlar amalga oshirildi:

- O‘zbek tilini o‘qitishda interaktiv diktantlarni foydalanish bo‘yicha “Interaktiv diktant” dasturini sinovdan o‘tkazish.
- Interaktiv diktantni dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda va masofali ta’limda foydalanish uchun metodik yordam berish (maslahat, seminarlar, mahorat darslari)

Tadqiqotning muayyan bosqichlarida (tadqiqotning boshlanishi va jarayonda) dasturni yaratishni loyihalash va uning natijadorligini aniqlash maqsadida muayyan sinf va guruhlarda, o‘qituvchilarda savolnomalar o‘tkazish (məktəb o‘quvchilari va malaka oshirish kurslari tinglovchilari ishtirokida)

Tadqiqotni o‘tkazish jarayonida an’anaviy va interaktiv diktantlarni o‘tkazish metodikasi bo‘yicha ko‘rsatmalardan foydalanildi.

Bunda asosiy e’tibor quyidagilarga qaratildi.

- Diktant turlarini va ularni farqlash.
- Diktant o‘tkazish metodikasiga rioya qilish masalasi.
- Diktant va yozma ishlarni baholash, tahlil qilish yo‘llari.
- Baholash me’yorlariga amal qilish masalalari.
- Diktant o‘tkazish va uni tekshirish, baholashni avtomatlashtirish masalalari.
- Interaktiv diktantlar orqali masofali ta’lim olish va aralash ta’limni tashkil qilish masalalari.

Mazkur masalalar bo‘yicha ko‘rsatmalar tayyorlanib, ular hamkorlikdagi umumta’lim maktablari fan o‘qituvchilariga yetkazildi. Fan o‘qituvchilariga qo‘srimcha yo‘l-yo‘riq berib turish uchun ijtimoiy tarmoqdan ham foydalanildi.

Fan o‘qituvchilariga quyidagi savollar bilan murojaat qilindi va ularning bergen javoblariga ko‘ra, qo‘srimcha ko‘rsatmalar berib borildi:

1. Diktantning qanday turlarini tez-tez o‘tkasiz? Nima uchun?
2. Diktantning qaysi turlarini kamroq foydalanasiz? Nima uchun?
3. Yana qaysi diktant turlarini bilasiz?
4. Baho mezoni deganda nimani tushunasiz?
5. Baho mezonini belgilashda qanday talablarga rioya qilinadi?
6. Yozma ishlardagi jiddiy (qo‘pol) xatolar va juz’iy (qo‘pol bo‘lmagan) xatolarni qanday belgilaysiz?
7. O‘quvchilaringizning ona tilining imlo, talaffuz, ishorat va uslubiy xatolarini sanab, tasniflab, monitoring qilib borasizmi? O‘zingizning shaxsiy tajribangizni bo‘lishing va h.k.

Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar va vazifalar o‘qituvchilarga davlat miqyosida berilayotgan e’tibor, o‘qituvchi mavqeini oshirish bo‘yicha qabul qilingan yangi qaror hamda farmoyishlar mohiyati har bir pedagogga tanish bo‘lishi zarur. Bu e’tiborga “labbay” deb javob berish uchun o‘qituvchilarning mas’uliyatni chuqur his qilishi, kasbiy kompetentligini orttirish uchun astoydil harakat qilishini taqozo qiladi. Ayrimlar raqamlarga e’tibor qaratish zarur. Qoraqalpog‘iston respublikasi bo‘yicha o‘zbek tili va adabiyoti fan o‘qituvchilari orasida oliy toifalilar – 6 foiz, bиринчи тоифаллар – 13,2 foiz, ikkinchi toifalililar esa 40 foizni tashkil qilayotganligi mavjud holatni yaqqol namoyon qiladi.

O‘quvchilarning yozma ishlarida imloviy va punktuatsion xatolarning kamayishiga erishilmayotganligi o‘qituvchilarning yangiliklar, o‘zgarishlar bilan baravar qadam tashlamayotganligida, innovatsiyalarga befarqligida, mavjud mul`timedia vositalaridan foydalanish bo‘yicha orqada qolayotganligida degan fikrni o‘rtaga tashlasak noto‘g‘ri bo‘lmaydi. Bizning tadqiqot doirasidagi tadbirlarimiz o‘zbek tili va adabiyoti fani bo‘yicha bo‘shliqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish, o‘zbek tilini o‘qitish jarayoniga olib kirilayotgan innovatsiyalar, o‘quvchilarni kitobxonlikka qiziqtirish, adabiyot darslarida mediata’lim imkoniyatlari, o‘quvchilarning savodxonligini oshirishga xizmat qiluvchi yangi axborot vositalari, shuningdek mavjud muammolar va ularning yechimiga qaratilgan takliflar bilan fan o‘qituvchilariga ijobiy ta’sir ko‘rsatish, ularni innovatsion jarayonga jalb qilishga ham qaratildi. Fan o‘qituvchilari “Ona tili. 5-sinf uchun elektron o‘quv-metodik majmua. 1-qism”, “O‘zbek tilidan interaktiv diktant” dasturi, 6-, 9-sinf ona tili darsligiga ilova sifatida tayyorlangan audiodasturlar tanishtirildi. Ona tili va o‘zbek tilini (davlat tili) o‘qitish jarayonida innovatsiya sifatida qabul qilish mumkin deb sanalgan mazkur vositalarni respublika miqyosida keng ommalashtirish va mualliflarga yanada imkoniyatlar yaratish, o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha muammolar asosida Nukus davlat pedagogika institutining tegishli kafedralari bilan fan, ta’lim, ishlab chiqarishda

hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha vazirlik miqyosida "Yo'l xarita"sigi yangi chora-tadbirlarni belgilab olish yuzasidan ishlar davom ettirilmoqda.

Zamonamizda aksariyat o'qituvchilar "Qanday qilsam darsim qiziqarli bo'ladi, o'quvchilarimning fanimga bo'lgan ishtiyoqini qanday oshiraman?" deb o'ylashadi. Bu bejiz emas. Chunki davr shiddatli: jamiyat o'zgarmoqda, texnologiyalar yangilanmoqda, maktabga qo'yilayotgan talab yangicha. Ta'limda ona tilini, ikkinchi tilni, adabiyotni o'qitishda kommunikativ, shaxsga yo'naltirilgan, integrativ va kompetentlik yondashuvlar amaliyotda qo'llanilayotgan bo'lsa, endilikda ta'limda yangi yondashuv shakllanmoqda. Bu innovatsion yondashuv degan nom oldi.

Innovatsion yondashuv o'zida fundamental ta'limni, ijodkorlikni, kasbiy mahoratni, texnik va gumanitar bilimlarning sintezini jamlaydi, yangi texnologiyalarni tatbiq qila olish kompetentsiyasiga ega bo'lishni taqozo qiladi va, albatta, shaxsga yo'naltirilgan bo'ladi.

Ta'lim jarayoniga kirib kelayotgan yangilik mohiyati fan o'qituvchilarini tomonidan chuqur anglansagina, u o'z samaradorligini ko'rsatadi. Fan o'qituvchilarida til va adabiyot o'qitishda innovatsion yondashuvning mohiyati, o'quvchilarning fanga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirish, til va adabiyotdan egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik hayotga tatbiq qilishga odatlantirish borasida o'zaro tajriba almashishga ehtiyoj mavjud. Umuman, innovatsion ta'lim, adabiyotlarda ta'riflanishicha, ta'limga yangicha yondashuv, fundamental ta'lim, ijodkorlik, akmeologik yondashuv, kasbiy mahorat, ikki madaniyat, ya'ni texnik va gumanitar bilimlarning sintezi, yangi texnologiyalarni tatbiq qila olishlik hisoblanadi.

Faoliyatimizda quyidagilarga e'tibor qilishimiz zarur:

innovatsiya katta yoki kichikligidan qat'iy nazar, shaxsiy ekanligi va shu bilan birga jamiyat farovonligiga xizmat qilishi;

ta'limdagi innovatsiya jamiyat o'zgarishlarini o'z mazmuniga qamrab olgan rivojlanayotgan ta'lim: yangicha standartlar, yangi o'qitish usullari, o'qitish texnologiyalari deb qaralishi;

ta’lim oluvchilarga ta’lim berish va tarbiyalash metod va usullari jamiyat va millat kelajagiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatishi;

innovator (yangilik, ixtiro, loyiha, nou-xau muallifi, innovatsiya boshlovchisi) pedagog degan maqom olishga intilish paydo bo‘lishi.

Tadqiqotimizni olib borish jarayonida fan o‘qituvchilarining jarayonga aralashishi ham ular faoliyatini, ham o‘quvchilarining ona tilini o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoq va ehtiyojlarini, ham ta’lim vositalarini modernizatsiyalash bo‘yicha mavjud holatni chuqur tahlil qilishimizga yordam berdi. Bu esa tadqiqotni yana davom ettirish zarur degan xulosa chiqarishimizga sabab bo‘ldi.

## XULOSA

Tadqiqot natijalariga ko‘ra ishlab chiqilgan va O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligida elektron hisoblash mashinalar uchun dasturlar reestirida 2018 yil 25 aprelda ro‘yxatdan o‘tkazilgan va №DGU 05233 raqamli guvohnoma berilgan “O‘zbek tilidan interaktivdiktant” EHM uchun dasturidan foydalanish o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun qator qulaylik yaratishi amaliyotda o‘z tasdig‘ini topdi.

Interaktiv diktantlar til o‘qituvchisining mashaqqatli mehnatini osonlashtiruvchi texnologiya sifatida tavsiya qilindi.

Interaktiv diktant turli ta’lim muassasalarida foydalanilishi, hatto katta yoshdagi qiziquvchilar ham o‘z savodxonliklarini tekshirib ko‘rishi mumkin.

O‘quvchilar dars jarayonida saytda joylashtirilgan interaktiv diktantlarni fan o‘qituvchilari rahbarligida bajarishlari mumkin. Bunda aralash ta’lim amalga oshiriladi, ya’ni o‘qitishning masofali va an’anaviy shakli birgalikda qo‘llaniladi. Kam vaqt va kuch sarflab o‘quvchilarning yozma savodxonligini oshirish imkoniyati vujudga keladi.

Interaktiv diktant loyihasining aralash ta’limni amalga oshirishdagi imkoniyatlari katta: tizim foydalanuvchining imlo va punktuatsion savodxonligini avtomatik ravishda tekshiradi: yo‘l qo‘yilgan xatolar miqdorini ko‘rsatib beradi. Xatolar bo‘yicha beriladigan izohlar ta’lim sifatini oshiruvchi omil bo‘la oladi. Umuman, o‘qituvchi rahbarligida onlayn rejimda o‘zbek tilidan savodxonlikni tekshirish imkoniyatini beruvchi xizmat turining yaratilganligi o‘qitish jarayonini axborotlashtirish, raqamli texnologiyalarni tatbiq qilishga oid islohotlar amalga oshirilayotgan davrda dolzarblik kasb etadi.

Har qanday fanda bo‘lgani kabi yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlardan kelib chiqqan holda o‘zbek tili o‘qitish jarayoni uchun ham yangi o‘qitish usullari, yangi ta’lim vositalari tatbiq qilinishi maktab o‘quvchisini hayotga tayyorlashda yangi shart-sharoitlarni yaratib beradi. Interaktiv diktantlar esa o‘zbek tilini kam kuch va

vaqt sarflab oson o‘qitish, o‘quvchilarning yozma savodxonligini oshirish uchun tavsiya qilinmoqda. Bizningcha, bu barcha o‘qituvchilarning orzusi va niyatidir.

Tadqiqotimizni amalga oshirish jarayonida hammualliflikda yaratgan EHM uchun dasturlari ona tili ta’limi sifatini takomillashtirish va o‘quvchilar savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

Til yashasa, millat yashaydi, deb bejiz aytishmaydi. O‘zbekiston kelajagi uchun savodxon avlodni tarbiyalash, layoqatli kadrlarni tayyorlashga oila, maktab, jamiyat mas’uldir. Til ta’limi uchun nafaqat kompyuter uchun dasturlar, balki mobil ilovalarni tez va soz yaratish kelajakdagi eng muhim vazifamizdir. Uzluksiz ta’lim tizimi ta’limning sifat darajasini yuqori ko‘tarishdek mashaqqatli davrni boshidan kechirayotgan davrda an’anaviy ta’lim va raqamli texnologiyalarni aralash qo‘llash o‘z hayotini buyruq va ko‘rsatmalar asosida emas, balki o‘z tafakkuri va yurak amriga ko‘ra qura oladigan yoshlarga ta’lim-tarbiya berish vositasiga aylanishi muqarrar.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

### **I. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar:**

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 34 б.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли Фармони. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017, 6-сон, 70-модда.

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти матбуот хизмати давлат раҳбарининг 2019 йил учун мўлжалланган энг муҳим устувор вазифалар ҳақидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2018 йил 28 декабрь.

4. «2017 –2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясининг «Фаол тадбиркорлик, инновацион ғоялар ва технологияларни қўллаб-қувватлаш йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида»ги ПФ-5308-сон фармони

5. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгacha ривожлантириш КОНЦЕПЦИЯСИ. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги ПФ-5712-сон Фармони

6. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

7. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: O‘zbekiston, NMIU, 2015.– 234 b.

8. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 107 б.

9. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 59 б.

### **Kitob va turkum nashrlar:**

10. Абдуқодиров А., Хайитов А. *Aхборот технологиясига оид атамаларнинг изоҳли луғати*. Тошкент: ТДПУ. 2002 – 27 б.
11. Актуальные вопросы формирования интереса в обучении. /Под ред. Г.И. Щукиной, – М., 1984. – 176 с. Размещено на <http://www.twirpx.com>
12. Зокирова Ф. ва б. *Электрон ўқув мажмуалар ва таълим ресурсларини яратиш методикаси. Методик қўлланма.* – Тошкент, 2010 – 55 б.
13. Марчук Ю.Н.Применение ЭВМ в учебной лексикографии // Проблемы учебной лексикографии и обучения лексики. – М.: 1978.- 161-168 с.
14. Электрон дарслик ва электрон ўқув қўлланмалари элементларига техник, гигиеник ва эргонометрик талаблар. – Тошкент, 2015. – 25 б.
15. Ўзбек тилини ўқитишида замонавий ёндашувлар ва инновациялар. Ўқув услубий мажмуа.Тузувчи Б.Супиева. Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети хузуридаги халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази. – Тошкент, 2018. 64 б.
- 16.Фозиев Э. Тафаккур психологияси. – Т.: Ўқитувчи. 1990. –184 б.
- 17.Фозиев Э. Таълим жараёнида ўқувчилар тафаккурининг ўсиши. –Т.: Ўқитувчи, 1980. – 43 б.
18. Adilova S. *O'zbek tilini o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish.* Toshkent: TDPU 2006 – 96 b.
19. Yusupova Sh., G'oziyeva O. *Ona tili o'qitishda interfaol usullar va kompyuter dasturi.* – Toshkent: Bayoz. 2013 -134 b.
- 20.G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. – Т.: О'qituvchi, 2012. 291-b.
21. G'ulomov A., Ne'matov H. «Induktiv» o'zbek tili dasturi. – Toshkent, 1992.

## **Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferatlari**

22. Adilova S. O‘zbek tili mashg‘ulotlarini kompyuter texnologiyalari vositasida tashkil etish (Oliy ta’lim muassasalarining rusiyabon guruhlarida): ped fan nomz. ...dis. – T.: 2004. -160 b.

23. Гордиенко О. В. Современный средства оценивания результатов обучения: практикум / О. В. Гордиенко. — Ярославль: «Литера», 2011. — 132 с. 2.

24. Зохиров Х. VII – VIII синф ўқувчиларининг ёзма ишларидағи пунктуацион хатолар устида ишлаш: пед. фан номз. ...дис. – Тошкент: 1970.–231 б.

25. Острикова, Т. А. Орфография в школе: полувековой опыт обучения / Т. А. Острикова. — М.: «Вербум-М», 2008. — 222 с.

26. Мирзаев А. Мактабда ўзбек орфографиясини ўргатишида диктант ўтказиш системаси: пед.фан.номз. ...дис. – Тошкент-Андижон: 1970. –363 б.

27. Юсупова Ш.Ж. Она тили таълими самарадорлигини оширишида илғор педагогик технологияларни жорий этиш / ноанъанавий усуллар ва компьютердан фойдаланиш/: пед фан. номз. ...дис. автореф. – Т.: 1998, -25 б.

28. Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари (академик лицейлар мисолида): пед. фан докт. ...дис. – Т.: 2005. – 277 б.

## **Ilmiy maqola va ma’ruzalar**

29. Антонова Т.В. Диктант в обучении иностранному языку как средство формирования интегрированного навыка Вестник КГУ. 2017.

30. Букина И.В. Виды диктантов для проверки лексического запаса учеников.URL:

[http://www.tea4er.ru/blogs/printblog?index\\_php?view=article&id=1554&tmpl=component&print=1](http://www.tea4er.ru/blogs/printblog?index_php?view=article&id=1554&tmpl=component&print=1)

31. Гребнева Е.В. Использование современных информационных технологий для реализации требований ФГОС НОО на современном уроке и во внеурочной деятельности.

32. Граф Т. А. Взаимосвязанное использование диктантов и тестов в обучении русской орфографии // Современная филология: материалы IV Междунар. науч. конф. (г. Уфа, март 2015 г.). — Уфа: Лето, 2015. — С. 32-35. — URL <https://moluch.ru/conf/phil/archive/137/6755/> (дата обращения: 23.11.2018)

33. Полянская К.С. Современные виды диктантов как необходимость, диктуемая временем новой эпохи.

#### **HTTPS://NAUCHFORUM.RU/CONF/PSY/XII/26606**

34. Ковина Т.П., Кульчицкая А.И. Актуальная методика интерактивного обучения русскому языку. Известия МГТУ «МАМИ» №4(22) 2014. <http://wwwcyberleninka.ru>

35. Козаева Г.Р., Паастаева Дз.Г. Особенности внедрения мультимедийных технологий в образовательный процесс Цхинвальского многопрофильного колледжа. //Молодой учёный. № 6 (86). Март, 2015 г. (625)

36. Muhitdinova X. Til ta’limida videomatnlar qanday uyg‘unlashadi. //Til va adabiyot ta’limi. -2015. -№8.

37. Трошина А.В. Учебное пособие по дисциплине "Информационные технологии в лингвистике". – СПб.: Изд-во СПбГЭУ, 2013.– 103 с. доступ: <http://www.allbest.ru/>;

38. Стародубцева Е.А.Использование Интернет-ресурсов в обучении иностранному языку (на материале английского языка) // Труды МЭЛИ: электронный журнал. —2009 —№ 9 [Электронный ресурс] — доступ: <http://www.e-magazine.meli.ru/vipusk9.htm>

39. Умарова Н. *Til tаълими ва таълимий-электрон ишланмалар* // Тил ва адабиёт таълими. –Toshkent. 2005. – № 6. – Б. 75-79.

40. Юлдашева III. Рақамли таълим технологиялари “Рақамли ўзбекистон – 2030” дастури учун пойдевордир. Тилшунослик ва адабиётшуносликнинг долзарб масалалари. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, Фан ва технологиялар, 2018.

### **Simpozium va konferensiya ishlari, internet materiallari**

41. Абдуллаева Д. Амир Темур мактублари. <http://e-adabiyot.uz>
42. Егоров И.А. Интерактивный диктант. <http://wwwscienceforum.ru>;
43. Дистанционное обучение: состояние и перспективы развития дистанционного обучения в Республике Казахстан.  
[https://studexpo.ru/84101/pedagogika/distantsionnoe\\_obuchenie\\_sostoyanie\\_i\\_perspektivy\\_razvitiya\\_distantsionnogo\\_obucheniya\\_v\\_respublike\\_kazakhstan](https://studexpo.ru/84101/pedagogika/distantsionnoe_obuchenie_sostoyanie_i_perspektivy_razvitiya_distantsionnogo_obucheniya_v_respublike_kazakhstan)
44. WWW. inetgramotnost.ru
45. Хамидов В.С. *Ta'lim tizimida keskin burilishga sabab bolgan 4 dastur haqida.* <http://uz.infocom.uz/2009/12/21/talim-tizimida-keskin-burilishga-sababbolgan-4-dastur-haqida/>
46. Разработка электронных учебных курсов в PowerPoint с помощью iSpringSuite. <http://www.iSpring.ru/>
47. Цифровые технологии. Wiki
48. Что такое цифровые технологии?  
[Https://normative\\_reference\\_dictionary](Https://normative_reference_dictionary).
49. O'qitishning raqamli texnologiyasi masalalari.  
<http://uz.infocom.uz/2007/10/15>
50. <http://www.ruthenia.ru/apr/textes/sherba/sherba20.htm>. Щерба Л.В. Безграмотность и ее причины.
51. Навоий ҳақида биз билмаган 25 факт. <http://www.Betakrorbuxoro.uz>
52. Қосимова Н. Заҳириддин Мухаммад Бобур – янги ёзув кашфиётчиси. <http://www.trift.uz>
53. <https://play.google.com>
54. <http://www.gramota.ru>; <http://www.mk.ru/social/2016/01/26/proverit-svoyu-gramotnost-pomozhet-interaktivnyy-diktant.htm>

55. <http://www.savod.uz>
56. QuvatovA.<https://kun.uz/uz/news/2017/08/12/uzbek-tilining-mavkeini-osiris-buning-ucun-kandaj-coralar-kurilisi-kerak>
57. <http://www.gramota.ru>; <http://www.mk.ru/social/2016/01/26/proverit-svoyu-gramotnost-pomozhet-interaktivnyy-diktant.htm>
58. WWW. [multiurok.ru](#)
59. WWW. [multimedia.uz](#).
60. [www.ispring.ru](#).
61. WWW. [intolimp.org](#)
62. WWW. [videouroki.net](#)
63. <http://www.diktant.uz>

### **Guvohnomnalar**

64. Юлдашева Ш., Зарипов О., Бекжанова М., Смайлова Д., Гулманова Қ., Янгибоева Г., Уразбоева Д. 5-синф учун “Она тили” фанидан электрон ўқув-методик мајсұра. Нұкис. 2016 (Guvohnoma: DGU 04136)
65. Ш.Юлдашева, М.Бекжанова, Н.Юлдашева, Қ.Гулманова, Х.Каримов. “Ўзбек тилидан интерактив диктант” ЭХМ учун дастури. Ўзбекистон Республикаси Интеллектуал мулк агентлиги гувоҳномаси. 2018 йил 25 апрель. DGU 05233